




DO'STIM Mening— KITOBIM



KICHIK MAKTAB YOSIDAGI BOLALAR UCHUN
HIKOYALAR

DO'STIM Mening KITOBIM

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR UCHUN
HIKOYALAR

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi
Respublika Ta'lim markazi nashrga tavsiya etgan



„Ensiklopediya“ nashriyoti

UO'K: 821.512.133-93

KBK: 83.8(50')

X 98

**Tuzuvchi:
Sunnat XO'JAAHMEDOV**

Ushbu kitobda mактабгача та'lim muassasalarining katta va kichik guruhlari hamda umumta'lim maktablarining 1 – 2-sinf o'quvchilariga mos, ularning pedagogik-psixologik ruhiyatlariga to'g'ri keladigan jazzi hikoyalar jamlangan.

Kitob tarbiyachilar, ota-onalar, boshlang'ich sinf o'qituvchilari va keng kitobxonlar ommasi uchun mo'ljallangan.

Abduilla Qodiriy nomidagi
viloyat AKM
INV № 2022/11-8

ISBN 978-9943-07-757-7

© S. Xo'jaahmedov

© „Ensiklopediya“ nashriyoti, 2022

SO'ZBOSHI

Har bir kishi eng baxtiyor va betashvish bolalik yillarida taxminan quyidagi qobiliyatlarni egallab olgan bo'ladi. O'ynab va sho'xlik qila turib, u nima yaxshi va nima yomonligi, narsalar, hayvonot, odamlar dunyosini anglab boradi. Buning ustiga dunyoni bilish shunchaki yuzaki bir kuzatuv emas: kecha u yomg'irning nimaligini bilmas edi, bugun esa ertalab uni ko'rdi-yu, ayni paytda dunyoda tarnovlar bo'llishini, chumchuqlar sovuqda hurpayib, yum-yumaloq bo'lib olishini ham bilib oldi. Bu ertalabki kashfiyotlar edi, tushga borib esa, u mu-shukchani qo'rqtib yuborsa, yunglari hurpayib, ko'zları yashil rangda chaqnab ketishini ham birinchi bor ko'rdi.

Kichik yoshdagи bolalarning o'yinlariga, chizgan rasm-lariga astoydil razm soling, gaplarini tinglang. Shunda siz ularning olamni naqadar yorqin, aqlga sig'mas darajada mo'jizakor bir tarzda ko'ra bilishlarini payqaysiz. Ular o'zlarining sezgirliklari tufayli, hatto ertaklardagi qo'rqinchli qahramonlardan ham qandaydir qiziq joylarini ilib oladilar, kundalik voqealarning esa kattalar sezmay qoladigan muhim jihatlarini ko'ra bilishadi. Mana shu



musaffo tuyg'ulari uchun ham kishilar bolalikni sevadilar va uni butun umr mammuniyat bilan xotirlab yuradilar. Betashvish bo'lgani uchun emas, musaffo tuyg'ulari uchun sevadilar uni.

Bizning ushbu kitobimiz xuddi shu maqsadda yuzaga keldi. Kitobda bolalar bog'chalarining katta va kichik guruhlari hamda umumta'lim maktablarining 1 – 2-sinf o'quvchilariga mos, ularning pedagogik-psixologik ruhiyatlariga to'g'ri keladigan jazzi hikoyalar jamlandi.

Hali o'qishni va yozishni bilmaydigan tarbiyalanuvchilar ushbu hikoyalarni avval tarbiyachi, ustozlari yoki ota-onalaridan tinglaydilar, o'qish va yozishni bilib olganlaridan so'ng esa o'zlari mustaqil o'qiy boshlaydilar va mana shu hikoyalar hamda ularning qahramonlari bilan o'sib-ulg'ayib voyaga yetadilar.

Kitobdan tarbiyachilar, ota-onalar, mahalla ertakchilari, boshlang'ich sinf muallimlari atroflicha foydalanshadi, degan umiddamiz.



ODOB ILMI

Bolalar har kuni kechqurun ertak eshitgani bobo atrofiga to'planishar ekan.

Kunlardan bir kun bir bola ertak aytgani xalaqit beraveribdi. Nuqlul „Buni eshitganmiz“, „Men bila-man“, „Bu bo'limg'ur ertak“, deyaveribdi. Bundan hammaning ensasi qotibdi.


– Bo'lmasa, o'tmishtagi bir voqeani hikoya qilay, eshitinglar! – debdi bobo.

Hamma qatori odobsiz bola ham qulq solibdi. Chol hikoyasini boshlabdi:

– Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir donishmand odam bo'lgan ekan. U o'g'lini katta shaharga ilm olgani yuboribdi. O'g'li uzoq yillar o'qib, dunyodagi hamma ilmlarni o'rGANIB, uyga qaytibdi. Uni ko'rgani yor-birodarlar, qarindosh-urug', mahalla ahli yig'ilibdi. Olim bo'lib qaytgan yigit na kattaga gap berarmish, na kichikka.

Nuqlul o'zini maqtab:

– Katta olim bo'ldim, – dermish.





Nihoyat otasining toqati toq bo'libdi-da, o'g'lini gapdan to'xtatib shunday debdi:

– Gapingdan ma'lum bo'ldiki, dunyodagi hamma ilmlarni o'rganibsan. Balli. Qani, gapir-chi, odob ilmi darsini ham tingladingmi?

O'g'il:

– Bunaqa ilm yo'q! – debdi. – Nahot men bil-magan ilm bo'lsa.

– Shunday ilm bor, uni o'qib olmaguningcha hamma ilmlarni o'rgansang ham chalamulla bo'lib qolaverasan, – debdi otasi.

O'g'li noiloj muallimlari yoniga qaytib ketibdi.

– Hali chalamulla ekanman. Menga odob ilmini o'rgatinglar, – debdi ustozlariga.

– Uni o'rgatishga biz ojizmiz. Dadangizga ayting, u ilmni sizga o'qitadi, – deyishibdi olim-mudarrislar.

O'g'il qaytib kelib dadasiga uchrabdi.

Dadasi:

– Ha, o'g'lim, hamma narsani bilsangiz-u, lekin odobingiz bo'lmasa, bir pul. Maqtanchoq emas, kamtar bo'ling. Sergap emas, kamsuxan bo'ling, kattani katta, kichikni kichik, deb biling. Hurmat hamisha yo'ldoshingiz bo'lsin! – debdi.



Shundan keyin u o'qib odobli bo'libdi, el-yurt uni hurmat qilibdi.

– Ana, o'g'lim, odob – odamning husni, – debdi bobo.

TO'G'RI SO'Z

Dam olish kuni edi. Bolalar cho'milgani bormoqchi bo'lishdi.

– Baxtiyor! Sen uyda o'tiratur, bizlar bir joyga borib kelamiz, – deyishdi akalar.

– Qayerga? – deb surishtira boshladi kichkintoy.

– Oyimlarga aytmasang, aytamiz, – deyishdi akalar. Baxtiyor va'da berdi.

– Cho'milgani boryapmiz. Darrov kelamiz. Qaytishda senga muzqaymoq olib kelamiz.

– Xo'p.

Bolalar ketishdi. Sal o'tmay bolalarning oyisi keldi-yu, Baxtiyordan so'radi:

– Akalaring qani?

– Dars tayyorlagani ketishdi, – dedi u ko'zlarini pirpiratib.

– Rostdanmi? – dedi oyisi jiddiy turib.

Baxtiyor dovdirab qoldi.

Keyin:

- 
- Hech kimga aytmasangiz aytaman, – dedi.
 - Aytmayman, – dedi oyisi.
 - Cho'milgani ketishdi. Hech kimga aytma, deyishdi. Hech kimga aytmaysiz-a, oyi, shundaymi? – dedi Baxtiyor yalinib.
 - Gaping to'g'ri, hech kimga aytmayman, – dedi oyisi.

Kechqurun ruxsatsiz cho'milgani ketganlari uchun akalar rosa gap eshitishdi.

- Aytib qo'yibsan-ku! – deyishdi akalar kichkin-toyga.
- Oyimga, hech kimga aytmaysiz, deb va'da olib aytganman, – dedi bola rost gapirib.

Shundan so'ng aka-ukalar dadasi va oyisiga boshqa yolg'on gapirmaslikka va'da berishdi.

DAG'AL BOLA

Ertalab yomg'ir yog'ib o'tgan edi. Bola ko'chadan bir ayloga loy sachratib o'tib ketdi.

- Hoy, o'g'lim, ko'zingga qarab yur, menga loy sachratib yubording, – dedi o'tib borayotgan ayol.
- Nasihatingizni o'g'lingizga qiling! – dedi bola ayloga qo'rslik bilan.
- Sen ham o'g'limsan-da, – dedi ayol.



Bola uzoqlashib ketdi.

Sinfga yangi muallima kirdi. Hamma bolalar tik turib uni hurmat bilan qarshi olishdi.

Dag' al bola-chi... Yangi muallimaning ko'ziga tik qarolmay, uyalib qoldi.

FAROSATSIZ BOLA

Bahor. Hovlida gul ekkani ariq olinardi.

Bobo terlab-pishib ishlar, nevarasi esa tomoshabin bo'lib, qarab o'tirardi. Buning ustiga, nuql bobosiga aql o'rgatardi.

Bobo rosa charchadi, charchaganini bildirish uchun o'qtin-o'qtin uh tortib qo'ydi. Qani endi nevarasi qo'lidan ketmonni ola qolsa...

Kutilmaganda bolaning o'rtoq'i kelib qoldi. U boni ko'rди-yu, chopib kelib uning qo'lidan ketmonni olib, ishga tushib ketdi.

– Otangga rahmat! – dedi bobo.

Ammo nevarasi uchun u rosa izza tortdi. Nevarasi esa beparvo edi.

QAYSAR BOLALAR

Alijon bilan Valijon degan aka-uka bo'lardi. Ular-ning yurish-turishlariga ko'pchilikning havasi kelardi.

Ammo... bu bolalar qaysarlikda bir-birlaridan qolishmas edi.

Kunlardan bir kun ona non yopdi-da, o'g'ilchalariga:

– Tez dadalaringga olib boringlar, issig'ida yesin! – dedi.

Bolalar yer haydayotgan dadalari oldiga – dalaga qarab yo'l oldilar. Ko'cha oxiriga yetib, o'ngga buriishdi. Bu yoq – dala. Keng o'tloq...

Alijon non o'ralgan dasturxonni yerga qo'ydi. Aka-uka maysa ustida yayrab o'ynashdi. Yovvoyi arpa boshog'ini yilib olib, beshiktervatar qilib urishtirishdi.

Nihoyat o'rinalardan turib, dala tomon yo'l olmoqchi bo'lishdi. Shu tob Valijonning qovog'i soliqroq edi.

– Qani, ketdik! – dedi akasi. – Dasturxonni ko'-tar!


– O'zing ko'tar, – dedi ukasi.

– Sen ko'tar!

– Yo'q. Sen ko'tar!

– Sen ko'tar, dedim.

– Yo'q, o'zing ko'tar.





Akasi bir qadam oldinga yurdi. Ukasi o'chakishib ikki qadam oldinga yurdi.

- Olib kel! – dedi akasi.
- O'zing olib kel! – dedi ukasi qaysarlik qilib.
- Menga nima, olib kelmasang, men ham olib kelmayman.

Aka-uka bir-birlariga o'chakishib, nari ketaverdilar. Non solingan oq dasturxon uzoqda qolib ketdi, endi u arang oqarib ko'rindardi.

San-manga borib ketayotgan aka-uka oldidan mактабдан qaytayotgan o'quvchi bola chiqib qoldi. Ikki bolaning xарxashasini eshitib, ular orasiga tushdi.

- Bittalaring borib olib kela qolinglar!

Bolalarga gap kor qilmadi. Qaytaga aka-ukani murosaga keltiraman deb o'quvchi bola bir musht yeb oldi ham.

Shu payt tugun oldida daydi kuchuk paydo bo'lib qoldi.

U non solingan dasturxonni iskay boshladi. Keyin paypaslashga tushdi...

- Nondan ajrading! – dedi o'quvchi bola.
- Uriш-janjal taqqa to'xtadi. Qaysar aka-uka jonlari boricha tugun tomon chopdilar.

ISHNI YASHIRMAN

Kechqurun qizcha choynak-piyolani yig'ishtirishda ayasiga yordamlasha turib bijilladi:

– Aya-chi, aya, hamma ishingizni qilaman. Qila-veraman, qilaveraman, sira charchamayman!

Ayasi qizini quchoqlab o'pdi-da:

– Unday bo'lса, ertaga men ishdan kelguncha hamma ishni qilib qo'ygin, – dedi.

– Xo'p, – dedi qizcha, – Siz hech narsa qilmang. Xo'pmi? Dam oling.

Ertalab ayasi ishga ketdi. Qizi buvisi bilan uyda qoldi. Qizcha uyda, hovlida o'ynadi, keyin dugonalari oldiga chiqib ketdi.

Birdan ayasiga bergen va'dasi esiga tushib qoldi.
– Voy, esim qursin! – Ayasi biron narsa esidan chiqsa shunday deb qo'yardi.

Qizcha yugurib hovliga kirdi. Nima qilsam ekan, deb to'rt tomonga ko'z yogurtirdi. Qani endi biror ish ko'rinsa. Supurgi ko'rina qolsaki, hovli supursa, oldidan xokandoz chiqa qolsaki, axlat olsa, katta latta bo'lсaki, pol yuvs...

Uning ko'zi ayvonda dumalab yotgan qo'g'ircho-g'iga tushdi. Qizcha uni avaylab ko'tarib oldi-da, o'yinga berilib ketdi.

- Kech kirdi, hamma yig'ildi.
Ovqatdan so'ng ayasi qiziga dedi:
– Kecha hamma ishni qilib qo'yaman deganding,
qizim, ish qildingmi?
– Voy, aya, ish qilaman deb biram qidirdim, bi-
ram qidirdim, hech joyda ish yo'q ekan. Hamma
ishni yashirib ketibsiz.
– Ha-ya, – dedi ayasi kulib, – bilmasdan yashirib
ketibman-da. Endi o'zing izlab topib o'r gan. Supur-
gi bilan xokandoz tandirning tagida, pol yuvadigan
latta anavi mixga osig'liq. Qidirsang ish topilaveradi.
Ertasiga qiz ishni izlab topdi. Asta-sekin uy ishini
qiladigan bo'ldi.

YANGI TOSHKENT

- Bola xayol surardi:
– Nimaning rasmini solsam ekan-a?
Qalam tutgan qo'lini chekkasiga qo'yib, daraxtga
boqdi. Uning surati bir necha marta chizilgan. Bola
ko'kka tikildi. Bu ham deyarli hamma suratida bor. U
hovlidagi gullarga, yosh nihollarga, ipga osib qo'yil-
gan ko'ylaklarga, ayvonga, boloxonaga, hatto tom
mo'risiga... hamma-hammasiga boqdi.

Bularning surati chizilgan edi. Bularni yana chizish bolaga erish tuyuldi.

Shu payt chirq-chirqlab chumchuq uchib o'tdi, koptok o'ynab ko'chadan ukasi kirib keldi.

Bola bularni ham rasmga olgisi kelmadi.

Shu payt birdan miyasiga yaxshi fikr keldi.

Bolaga ilhom keldi, mo'yqalamini yurgizib allaqanday chiziqlar tortdi. Keyin bir zum xayolga botdi-da, o'zicha:

- Judayam chiroyli bo'lishi kerak! – deb qo'ydi.
- Ukachasi uni kuzatib turardi.
- Nima deyapsiz, aka? – deya so'radi u.
- Xalaqit berma! – dedi rassom bola.

Qo'li qo'liga tegmay ishlab ketdi. Ukasi qarab tursa qalam qavat-qavat uylarni bitkazib tashlayapti. Uylar oldida elektr chiroqlar, do'konlar, bekatlar... Ko'chadan avtobus g'izillab o'tyapti.

Kichkintoy chidab turolmadni:

- Aka, bu yer qayer? – deb so'radi.
- Yangi Toshkent! – dedi rassom bola quvonch bilan yengil nafas olib.



JANJAL KULGISI

Buvi nevarasini koyib, o'g'liga chaqdi:

- Hayot juda sho'x, yerga ursang ko'kka sapchiydi. Hali ko'rsang tut shoxida, hali tom boshida... kuchim yetsaki, ushlab...
- Qachon? – dedi nevarasi buvisining gapini bo'lib, sho'xlik bilan.

Buvisi unga yuzlanib, nasihat qila boshladi:

- Bola degan bunday yengil bo'lmaydi. Yantoq ustidagi chittakdan ham yengilsan, bolam... Og'ir bo'lish kerak.

- Og'irman, buvi, – dedi nevarasi jiddiy yo'sinda, – ishonmasangiz ko'tarib ko'ring-chi, kuchingiz yetarmikin?

– Kuch qayoqda, – deb kuldi buvisi.

Shu bilan janjal kulgiga aylandi.

TUSH

Bahor keldi. Ariqlarda jildirab zilol suv oqa boshladi. Maysalar yerdan bosh ko'tardi.

Ona-bola ko'chani aylangani chiqishdi. Hovli buncha ham dirlrabo, olam buncha ham keng, havo



buncha ham soz bo'lmasa. Tabiat hammani sof havoga chorlar edi.

Uch yashar Zafar uydan chiqdi-yu, ayasini ortda qoldirib, ko'chadan chopib ketdi. Ayasi uning ketidan zo'rg'a yetib borardi.

Nihoyat ular kichik bog'ga kirdilar.

Daraxtlar soyasiga o'rindiqlar qo'yilgan, o'tloqda yovvoyi bahor gullari o'sib yotibdi.

Bola ularga qarab suyunib kului. Keyin qo'llarini cho'zdi.

– Gul terib beraymi? – dedi ayasi o'tloqqa qarab. Bola o'tloqqa intildi. Keyin o'zi gul uza boshladni. Ayasi bir dona qoqi gulni uning ko'kragiga qadab qo'ydi.

Shu choq oq kapalak uchib kelib qoldi. Bola juda suyundi, uning ketidan uzoq yugurdi – kapalak tutqich bermadi.

Bola o'rindiqqa kelib o'tirganda ayasi unga qog'ozdan qayiqcha yasab berdi. Bola uni olib, shildirab oqayotgan ariq bo'yiga yugurdi.

– Qayig'imni suzdiraman, – dedi suvga engashib.

Qayiqcha kichkina oqim bilan olishib, suzib ketdi. U uzoq suzdi, bola uning ketidan yugurdi, suyunib

qichqirdi. U hamma narsani unutgan, xayoli yolg'iz shu qayiqchada edi.

Qayiqcha kichkina ko'prikhaga yaqinlashdi.

„Endi nima bo'ladi? Qayiqcha ko'prik tagidan o'ta oladimi?“

Qayiqcha ko'prik tagiga kirib ketdi. Bir zum o'tmay, ko'priknинг narigi tomonidan qalqib-qalqib chiqdi.

– Urra! – dedi bola.

Qayiqcha yana suzib ketdi.


Nihoyat uzun, tor ko'prik keldi. Nima qilish kerak? Qayiqchani suvdan olish qiyin, bolaning qo'li yetmasdi.

Mana, qayiqcha ko'prik og'ziga kelib to'xtadi. Avval ko'prik tagiga kiraymi-kirmaymi deb bir zum o'ylaganday bo'ldi, keyin „tavakkal“ deganday o'zini tutib turgan bargni ham turtib yuborib, ko'prik ichiga qaray boshladi. Qorong'i ko'prik ichida hech narsa ko'rinasdi.

– Qayig'im, qayig'im! – deb qichqirdi bola.

Ayasi kiyimlarini kir qilgani uchun bolani koyidi. Ammo bola unga parvo qilmas, nuqul qayiqcha xarxashasini qilar edi.

– Ko'prikn buzing, olib bering!



– Voy, o'g'lim, ko'prikni buzib bo'lmaydi. Bolalar suvdan o'tolmay qolishadi ko'prik buzilsa, – deb tu-shuntirdi ayasi.

Bola ko'nmadi. Xarxasha-yu yig'iga o'tdi.

Nuqul „Ko'prikni buzing!“ derdi u. Ayasi uni ovuta olmay, ko'p ovora bo'ldi. Dam olayotgan ayollar, ar-qon o'ynab sakrayotgan qiz bolalar ayaga ko'makka kelishdi. Nihoyat bola charchab, ko'zi yumildi. Keyin ayasi bag'rida qattiq uyquga ketdi.

U tush ko'rди...

Bola chiroyli qayiq yasadi. U suvda suzib, kattakon ko'prik tagiga kirib ketdi. Qayiq qaytib chiqmadi.

Bola qayig'ini chiqarib olish uchun ko'prikni buza boshladi. Ketmon urdi – buzilmadi, lom bilan urdi – sinmadi. Bola kattakon ekskavatorni haydab keldi-da, o'tkir tishli cho'michini ko'prikka soldi. Ekskavator „Yo'q, bu ishni qilmayman!“ deb turib oldi. Bola nima qilishini bilmay qoldi. Nihoyat gugurtni oldi-da, ko'prikni yoqmoqchi bo'ldi.

U gugurtga qo'l cho'zdi. Shunda:

– Ushlanglar, jinoyatchini ushlanglar! – degan ovozlar eshitildi.

Bola orqasiga qaradi: bir yonda yuzlab mashina, avtobuslar, minglab odamlar turishardi. Hammaning

yuzida tashvish... Go'yo hozir ko'prik yonadi-yu, shaharda harakat to'xtaydi.

Bir yonda bog'chaga borolmay, bolalar hayron, ba'zilari yig'lashyapti, bir yonda ishga borolmay, aysasi xafa, dadasi bo'lsa, suvdan suzib o'tyapti. Havo sovuq.

Bola televizorda bir binoga o't tushib, uning ichidan chiqib kelayotgan odamlarning qanchalik qiyin ahvolda qolganini ko'rgan edi. Bu safar ham xuddi o'shanday dahshatli manzara sodir bo'lmoqda edi.

Birdan o't o'chiruvchilar qizil mashinalarini qichqirtirib yetib keldilar. Katta mashinalardan militsionerlar shoshilib tusha boshladilar. Odamlar-chi... Hamma falokatning oldini olgani shoshilardi.

O't o'chiruvchilar nasoslarini yozib, suv o'rniغا muz purkay boshladilar. Militsiya xodimlari esa ko'prik buzuvchini ushlagani chopishardi.

Bola sovuq qotib ketdi. Muz uning qo'l-oyoqlarini uvushtira boshladi.

U bir seskandi-da:

– Yo'q, tavba qildim, ko'prikni yoqmayman! – deb qichqirdi.

Ayasi qo'rqib ketib, o'g'lini o'rab chirmadi. Shu choq bola ko'zini jovidiratib ochdi.

- Nima bo'ldi, o'g'lim? – dedi ayasi.
- Ko'prikni buzmaymiz! – dedi u. – Yuring, uyga ketamiz!

Ona-bola qo'l ushlashib, uyga qaytdilar.

„HAYOTGA TO‘G‘RI KELADI“

Dam olish kuni edi. Televizorda multfilm berayotgan edi. Hamma bolalar televizor ekrani oldida churq etmay jim o'tirishardi.

...Keng dala. Adir bo'ylarida lolalar qad ko'tarib, qizil g'uncha ochmoqda. Tabiat yurtga bahorni sovg'a etgan.

Lolalar barq urib ochilganda adir orqasidan xushchaqchaq quyonchalar chiqib kelishdi. Lolalarni avaylab uzib, guldstalar yasashdi. Keyin katta o'tloq bag'riga yastanib, guldstalarni o'rtaqa qo'yishdi-da, ko'z-ko'z qilishdi. Eng yaxshi ashulalarni aytib, lolani ulug'lashdi, keyin davra qurib, rosa o'ynashdi. Xuddi shu paytda tikanzor ichidan ko'k bo'rilar chiqib kelishdi. Bo'rilar lolazorga kirib, uni iskashdi-da, sassiq alafdan hazar qilganday jirkanib, toptay boshlashdi. Quyonchalar lolazorga bo'ri oyoq qo'yganini bilib, qiy-chuv ko'tarishdi.



Televizor ekranida lola uchun jang boshlandi. Bolalar yuraklari dukullab, bo'rilardan g'azablanib o'tirar edilar...

Multfilm ajoyib voqealarga boy ekan.

Shu payt Dildoraning yuqori sinfda o'qiydigan akasi Botir ko'chadan kirib kelib:

– Ey, bu qanaqasi? Shuni ko'rib o'tiribsizlar-mi? – deb qoldi, u juda sergap edi. So'zini davom ettirib: – Ko'rib o'tirgan tomoshangizni qarang-u... Bu hayotga to'g'ri kelmaydi-ku! – dedi.

Dildora orqasiga burildi va hozirjavoblik bilan:

– Bu Hayotga to'g'ri keladi, – dedi-da, kichkina ukasi Hayotni ko'rsatdi.

Eng oldinda miq etmay o'tirgan Hayot uni quvvatlab:

– Ha, bu bizga to'g'ri keladi, – dedi-da, yana tomoshaga berilib ketdi.

Ularning gapini eshitib turgan dadasi katta o'g'liga tanbeh berib:

– Kichkintoylar dilini bilish kerak, o'g'lim. Ularning dunyosi boshqacha, – dedi.

Botir noto'g'ri gapirib qo'yganini tushundi.



CHIROYLI QIZ

Dilnozani oyisi o‘z mahallalarida joylashgan bog‘chaga olib bordi. Ammo u bog‘chada joy yo‘q ekan.

– Qo‘sni bog‘cha mudirasi bilan gaplashib ko‘raman, qizchani o‘sha yerga joylashtiramiz, – dedi mudira opa.

Dilnoza chiroyli kiyingan, boshida qamishdan to‘qilgan shlapa, ustida oppoq ko‘ylak, oyog‘ida yangi tufli, o‘zi sutga chayib olganday oppoq.

– Qani, yuringlar, o‘zim oborib joylab qo‘yaman, – dedi mudira opa.

Qizni tomosha qilgani va kuzatgani tarbiyachilar hamda kichkintoylar yig‘ilishdi.

– Assalomu alaykum! – dedi Dilnoza ularga muloyimgina jilmayib boqib.

– Va alaykum assalom, buncha odobli qiz ekan, – deyishdi tarbiyachi opalar.

– Juda yaxshi qiz ekan, – deyishdi bolalar.

– Kel, o‘rtoq bo‘lamiz, – dedi bir qiz.

Ular qo‘l berib ko‘rishishdi va bir-birlari bilan o‘rtoq bo‘lishdi.

Tarbiyachi opalar Dilnozani o‘rab olishdi.



- Voy, shunday chiroyli, shunday odobli qizni boshqa bog'chaga berib yuborgani qanday ko'zimiz qiyadi? O'zimizda olib qolaylik!
 - Joy yo'q-da!
 - Bitta bola oshiq bo'lsa hech narsa qilmas, ola qolaylik, xo'p, deya qoling...
- Tarbiyachi opalar yalinib turib olishdi.
- O'zimning ham ichim achib turuvdi, – dedi mudira opa. – Xo'p, o'zimizda qola qolsin.
 - Rahmat, yaxshi opa, – dedi Dilnoza.
- Dilnoza shu bog'chada qolib, a'lo xulqli qizlardan biri bo'lib tarbiyalandi.

„QO'SHNI BIROVMI?“

- Iyun keldi. O'riklar sarg'ayib pisha boshladni.
- Bola o'rmalab qo'shnining tomiga chiqdi, undan o'rikka qo'l cho'zdi. Daraxt shoxlari uchidagi sap-sariq o'riklardan uning qo'yni to'la boshladni.
- Hoy, kim u, birovning o'rigidan olayotgan? – degan ovoz eshitildi.
 - Men, – dedi bola.
 - Tush, olma! Hoy, tush deyapman senga! – qo'shnining qizi shang'llab urishib berdi.



Bola pinagini ham buzmadi – kimga aytyapsan ham demadi.

– Senga aytyapman! Hoy, qanaqa bolasan o'zi?! Hoziroq tush, bo'lmasa oyog'ingni sindiraman! – deb o'dag'ayladi qo'shnining qizi.

– Ey, muncha baqirasiz! – dedi bola. – Sal to'x-tab turing, biroz terib olay...

Jahli chiqqan qo'shnining qizi kulib yubordi va:

– Birovnikini olsang, o'g'ri bo'lasan-ku... – dedi.

– Qo'shni birov emas, o'g'ri bo'lmayman. O'rik pishgandan keyin yejish kerak-da... Nima, u pishib yotaversin-u biz og'zimizni ochib yuraveramizmi?

Bola o'rikni olib bo'lib, bemalol hovliga tushayotganida, ularning gapini eshitib turgan dadasi:

– O'rik birovnikи. So'rab olish kerak edi. Yaxshi ish qilmading, o'g'lim! – dedi.

– So'raganman, dada! – dedi bola. – Ishonmasangiz, ana, Toshpo'latdan so'rang!

– Toshpo'lat qani?

– Devor tagida turibdi.

Dadasi qarasa, o'rikli qo'shnining o'g'li devor tagida o'rikni kutib tomga tikilib turibdi. Bir qo'yin o'rikni hammalari baravar baham ko'rishdi.



BOSHI XUMDAY BOLA

A'zamjon bog'chaning o'rta gruppasiga qatnaydi. U yerda bog'cha opasi shunday o'yinga o'rgatibdiki, asti qo'yaverasiz. Ayniqsa, „Andijon polka“siga o'yin tushganini tomosha qilsangiz, og'zingiz ochilib qoladi: quyondek dikillab tez harakat qiladi, qop-qora, charosdek ko'zlarida nur chaqnaydi, gilos lablarida shirin tabassum paydo bo'ladi. Buni ko'rgan har qanday kishi „Xo'b shirin bola ekan-da“ deb, beixtiyor quchoqlab oladi. Anordek yuzlaridan o'padi.

A'zamjon esa buni yoqtirmaydi. Darrov dastro'molini olib yuzini artadi. Ba'zan asabiylashib, yig'lab ham yuboradi. Undan keyin qancha yalinsangiz ham o'yinga tushmaydi, na yoningizga keladi, na bergen konfetingizni oladi. Qanday qilsa, odamlarning „shirin bola“ deb o'pishidan qutilarkin-a!

Bir dam olish kuni dadasi A'zamjonni bozorga olib bordi. O'yinchoq miltiq olib berdi. Kabob bilan mehmon qildi. Keyin chipta olib, eshigi ustiga „Kulgixona“ deb yozib qo'yilgan xonaga olib kirdi.



U yerda boshqa kishilar, xolalar, bolalar ham bor edi. Hamma qotib-qotib kulardi. A'zamjon ham, dasi ham xaxolab kula boshlashdi. Chunki xonaga turli oynalar o'rnatilgan bo'lib, ular odamlarni turli qiyofaga solardi. Biri semiz, past bo'yli kishini novcha, qiltiriq qilib ko'rsatsa, ikkinchisi ozg'in kishilarni meshday qilib ko'rsatardi. Bir oyna dadasingning qornini juda katta qilib ko'rsatdi. A'zamjon qotib kuldi-da:

– Vuy, dada, qornizni qarang. Juda katta, xunuk bo'lib ketdi, – dedi.

A'zamjonning bo'yi past bo'lgani uchun boshi katta ko'rinib ketgan edi.

– O'zing-chi, o'zingning boshing xumday, bo'ying qilday, qulog'ing supraday bo'lib ketdi. Tag'in odamlar seni shirin bola deyishadi, – dedi dadasi hazillashib.

Shu-shu bo'ldi-yu, A'zamjonga maza bo'ldi. U qachon odamlar iltimos qilsa, o'yinga tushadi. Lekin o'ptirmaydi!

Biror kishi: „Juda shirin bola ekansan-da, kel, bir o'pay!“ – desa, A'zamjon:

– Men shirin bola emasman. Boshi xumday bolaman, – deb qochib ketadi.



IKKI XIL YORDAM

Bir xotin sabzavotlar solingan og'ir to'r xaltasini ko'tarib kelayotgandi.

Orqadan ketma-ket ikki bola, ularning ketidan bir chol kelmoqda edi. Bir mahal to'r xaltadan bir kartoshka tushib, dumalab ketdi.

– Xola, kartoshkangiz tushdi, – deb birinchi bola o'tib ketaveribdi. Ikkinci bola hech narsa demadi-yu, yerdagi kartoshkani olib, to'r xaltaga soldi. Orqadan yetib kelgan chol bolaga:

– Baraka top, bolam, – dedi.

Shunda birinchi bola to'xtab:

– Bobo, menga hech narsa demadingiz? Axir men ham xolamga „kartoshkangiz tushdi“, deb ayt-dim-ku, – dedi.

Bobo unga javob berish o'rniga ikkinchi bolaning yelkasiga qoqdi:

– Ota-onangga rahmat, bolam.



OLA QUYONCHA HAQIDA ERTAK

Bir Ayiqpolvon bor ekan. U g'ijjakni juda yaxshi chalar, kuylarni yaxshi bilar ekan. Kunlardan bir kuni Ayiqpolvon musiqa to'garagi ochibdi. Quyon, Olmaxon, kiyik bolalarini to'plab, musiqa o'rgata boshlabdi. O'rmonda ajoyib kuylar yangrabdi. Buni eshitib Ola quyoncha ham kelibdi-da, Ayiqpolvondan:

- Meni ham to'garakka oling, – deb iltimos qilibdi.
- To'garakka yaxshi o'qiydigan, eng odobli bolalarni olamiz, – debdi Ayiqpolvon. – Sening o'qishlaring yaxshimi, odoblimisan?
- Men ham yaxshi bo'laman, ola qoling!
- Nima, hozir yomonmisan? – deb so'rabdi Ayiqpolvon. Ola quyon biroz jim turgach, keyin sekingina bunday debdi:
 - Sinfdoshlarim meni „Ola yolg'onchi“ deb chaqirishadi, darslarimam...
 - Sen yolg'onchilikni tashlasang, to'garakka nog'o-rachi qilib olamiz, – debdi Ayiqpolvon va quyonning xomush bo'lib qolganini ko'rib:
 - Nega xafa bo'lib qolding? – deb so'rabdi.
 - O'qishimni darrov tuzata olmayman-da, – deb javob qilibdi quyoncha.





– Bo‘lmasa avval yolg‘on gapishtni tashla. Shundan keyin to‘garakka qabul qilamiz. Lekin shartimiz shuki, so‘raganimizda doimo to‘g‘ri javob berasan.

Ola quyoncha rozi bo‘libdi.

Bir kuni u ko‘chada o‘ynab, mashg‘ulotga kech kelibdi.

– Nega kechikding? – deb so‘rabdi Ayiqpolvon.

– Oyim kasal edilar, dori olib keldim, – debdi Ola quyoncha. Shu payt eshik taqillab qolibdi. Eshikda Ola quyonchaning onasi ko‘rinibdi. U ozgina sabzi bilan karam keltirgan ekan:

– Ovqatlanmay ketibdi, bolaginam ochiqib qolmasin deb nonushta keltirdim, – debdi ona quyon.

Hamma Ola quyonchaga qarab kulib yuboribdi. Ola quyoncha qizarib ketibdi.

– Yolg‘on gapirmayman, degan eding-ku, – debdi Ayiqpolvon quyonchaga.

– Endi chin so‘z beraman, yolg‘on gapirmayman, – debdi Ola quyoncha o‘rnidan turib. Chunki yolg‘onning axir ochilishini tushunibdi-da.

Shu-shu Ola quyoncha yolg‘onchilikni tashlabdi.



VELOSIPED

Ko'chamizda Botir degan bola bor. U bog'chaning katta guruhiga qatnaydi. Bog'chadagi o'rtoqlari unga „Botir maqtanchoq“ deb nom qo'yishgan. Chunki u „Men botirman. Ko'chamizning zo'riman, hamma bolalar mendan qo'rqedi“, deb maqtanarkan.

Biz qo'shnilar esa uni „Botir xira“ deymiz.

Buning ham sababi bor.

Botir ko'pincha nojo'ya qiliqlar bilan bolalarning o'yinlarini buzadi. U velosipedini minib ko'chaga chiqdimi, signalini du-dulatib to'ppa-to'g'ri o'ynab yurgan bolalar ustiga haydaydi. Botir avvaliga kichkin toylnarni, bora-bora o'rtoqlarini ham bezdirib qo'ydi. Botir ko'chaga chiqishi bilan ular uy-uyiga kirib ketadigan bo'lishdi. Botir esa, „Hammasi mendan qo'rqedi“, deb o'ylab, xursand bo'ladi.

Ko'p o'tmay Botir ko'chaga chiqqanida bir o'z qoladigan bo'ldi.

Bir kuni kechki payt nima qilishini bilmay turganida yo'lakdan kuchuk o'tib qoldi. Botir velosipedini du-dulatib quvgan edi, kuchuk lip etib ko'chaning narigi betiga o'tib ketdi. Endi nima qilsa ekan?



Bunday qarasa, nariroqda bir chol ketyapti. Qo‘li-da hassa, Botir bir narsani o‘ylab, iljaydi-da, velosipedini chol tomonga haydadi, bir-ikki du-dulatib qo‘ydi, chol o‘zini chetga, gulzor yoniga oldi. „Cholni ham qo‘rqitdim“, dedi Botir ichida sevinib. Keyin unga yaqin borib ustma-ust du-dulatib yubordi. Chol cho‘chib ketiga qaradi. Shunda Botir bu qariya o‘zining bobosi ekanini ko‘rib:

- Men sizni boshqa chol deb o‘ylabman. Kechiring, buvajon, – dedi bobosiga yalinib.
- Hali shundaymi, – dedi bobosi. – Mendan boshqa chollarni hurmat qilmas ekansan-da. Agar shunday bo‘lsa, endi senga buva bo‘lmayman.
- Botir nima deyishini bilmay, ko‘zlarini joydiratib qolaverdi.





IGNA

Sora bog'chasidan barvaqt qaytib qoldi. U zing'il-laganicha hovliga kirdi-yu:

- Buvi, buvi! – deb chaqira boshladi.
- Buvisi tandirga non yopayotgan edi.
- Ha, bolam, nechuk erta kelib qolding? – dedi u oshxonadan turib.
- Opam tomoshaga oboradila, ko'ylagimga tugmacha qadab bering, – dedi Sora.
- Hozir, bolam, – dedi buvisi. – Nonim kuyib ketmasin.

Soraning kutishga vaqt yo'q edi. Axir u yodqa opasi bilan qancha o'rtog'i poylab turibdi-da.

Sora shkafdan yangi tikilgan qizil shoyi ko'ylagini oldi. Keyin buvisining ishpechidan ignani olib, ko'yla-giga tugmacha qadashga kirishdi. Qanaqa tugmacha deng – qip-qizil, silliq, yaltiroq tugmacha!

U ipni ignaga bir amallab o'tkazdi-yu, u yog'iga qiynalib qoldi. Dam ignasi qo'lidan tushib ketadi,



dam tugmacha sirg'ilib tushadi. Xullas, ko'p qiyin ish ekan-da! Iya, ana bir narsa chirs etib ketdi. Mundoq qarasa igna sinib ketibdi.

Sora cho'chib tushdi. Hech kim ko'rmadimi, deb u yoq-bu yoqqa alanglab ham oldi. Endi nima qilish kerak-a? Shoshib-pishib igna-iplarni joyiga qo'ydi-yu, yana „buvi“lab chaqira boshladi.

– Mana, boryapman! – deganicha kampir bir savat issiq non ko'tarib uyga kirdi. Soraga piyolaning og'zicha keladigan jizzali kulcha berdi.

– Buni yeb tur, darrov qadab beraman.

Kampir ishpechi bilan shoyi ko'ylakchani oldiga olib o'tirdi. Ko'ziga sariq ko'zoynagini ham taqib oldi. Keyin ignani qo'liga ushlab ko'rsaki, siniq.

– Buni kim sindirdi? – dedi achinganicha.

– Qaydam? – dedi Sora yuzini chetga burib.

– Mayli, sinsa sinar-ku, – dedi buvisi, – lekin sinig'ini topish kerak. Tag'in oyoq-poyog'ingga kirib ketmasin deyman-da.

Kampir gilam ustini timirskilay boshlagan edi, Sora shoshganidan:

– Qidirmang, buvi! Olib tashlaganman, – deb qo'ydi. – Boshqasi yo'qmi?

– Boshqasi bor-u, ko'rpa qaviq igna edi-da. Tug-machangga o'tmaydi. Darrov borib opoqingning ignasini olib chiqa qol, qizim.

Sora koyish eshitmaganiga xursand bo'lib, opoqisinkiga chiqib ketdi, biroz hayallab igna olib chiqdi. Buviginasi darrov tugmachani qadab berdi. Keyin Sora yasanib olib bog'chaga g'irilladi. Terlab-pishib bog'chaga borsaki, bolalar hozirgina tomoshaga ketib qolishibdi. Sora qovog'ini solib, labini osiltirib uyiga qaytdi.

- Nega darrov qaytding, qizim?
- Ketib qolishibdi-ku! – dedi Sora xafa bo'lib.
- Qo'y, xafa bo'lma, qizim! – dedi buvisi uni bag'riga bosib. – Igna sinmaganda kechikmasding. Keyingi safar vaqtida borasan.

DAMIRNING QULOG'I YO'QMI?

Damirning qulog'i yo'q, deyishadi. Shu to'g'rimi-kin-a? O'zi birinchi sinfda o'qiydigan kattakon yigitcha, o'qishda a'luchi. Nega endi qulog'i yo'q bo'lsin?

Oyisi kechqurun ovqat pishirayotganda:

- Hoy, katta yigit, vodoprovoddan paqirchangda suv keltirib bergen! – desa, Damir:



– Darsim bor, – deb bahona qiladi-da, o'yinga beriladi.

Oyisi ertalab choy qaynatayotganda:

– Jon o'g'lim, do'kondan non olib Kelgin, – desa, Damir:

– Məktəbda navbatchiman, – deydi-da, choy ichmasdan ham ketaveradi. Oyisi esa „hay-hay“ deb achinganicha qoladi.

Qish kunlaridan birida Damir yaxmalak otish uchun kastumda ko'chaga chiqdi.

Oyisi:

– Hoy bolam, paltochangni kiyib ol. Sovuq yeysan, – degan edi. Damir qulq solmadi. Yaxmalak ota-ota terlab ketdi. Charchab kelib yotgan edi, gup etib isitmasi chiqdi. Oyisi doktor chaqirdi. Doktor opa termometr qo'yib:

– Shamollabsiz, yigitcha. Ikki-uch kun yotasiz, bundan keyin oyingizning gapidan chiqmaysiz, – dedi. Ukol qildi. Dori berdi.

Shu kuni Damir o'qishdan qoldi. Bunga juda achi-nib ketdi. Ertasi sinfdagilar hayvonot bog'iga bori-shadigan edi. Kechasi bilan Daimirning ko'ziga maymunlar o'yini, ayiqpolvonlar kurashi ko'rinib chiqdi.

Uning boshi aylanib turardi, shunga qaramay erta bilan:

– Men ham boraman, – deb turib oldi.

Oyisi urishib berdi:

– Yot hozir, qulqosiz! Doktor opang nima dedi?

– Xoh! Men tomoshadan qolamanmi? – dedi Damirga alam qilib.

– Gapimga qulqoq solsang-chi, o'g'lim, – dedi oyisi, – keyin o'zim olib boraman.

Damir darrov borib karavotiga yotib oldi.

Oyisi xursand bo'lib dadasiga:

– Qarang, o'g'lingiz qulqolli bola-da, – degan edi, dadasi kului. Damir boshini ko'rpgaga burkab olib piqilladi, kuldimi, yig'ladimi bilib bo'lmadi.

BULBUL

Qobiljonning dadasi Olim aka kuzda bog'chaga har xil ko'chatlar o'tqazgan edi. Bahor kelib daraxtlar, gullar ko'karib ketdi. Hademay, o'rik, shaftolilar gulga kirdi, ularning tagida gunafshalar ochildi. Buni ko'rgan Qobiljon terisiga sig'may quvonardi.

Ana endi Qobiljonning ishi ko'payib qoldi. Qarasangiz, bog'ga kirib menganlik qila ketdi-ku! Har

kesak otganda desangiz, daraxtlarning uch-uchidagi pushtirang gullar kapalakday uchib tushardi.

Bir kuni erta bilan bog'chada merganlik qilib yursa, qo'shni tomondan qush ovozi kelyapti. Qobiljon qulq solib tursa, juda ham yoqimli ovoz. Bu qanaqa qush ekan? U darrov bitta kesak oldi-yu, pastak devorga tirmashdi. Bundoq qarasa, qo'shni bog'dagi katta gul tepasida bulbul sayrab turibdi. Zab chiroyli ekanmi? Qobiljon devor tepasiga minib olish uchun xo'p tirmashdi, chiqolmadi. Yaxshiyam chiqolmagani! Devorga minib olganda bormi, kesak bilan bulbulni poylagan bo'lardi!

Olim aka ishdan qaytganda Qobiljon qo'shnilarinika bulbul kelganidan xabar berdi.

– Dada, dada! – dedi u ko'zini katta-katta ochib, – nega bizning bog'ga bulbul kelmaydi-a?

Dadasi:

- Qo'rqadi, – dedi.
- Nimadan qo'rqadi? – dedi u ajablanib.

Dadasi:

- Sendan! – dedi.
- Iya, nega endi mendan qo'rqadi?
- Axir, kesak otsang, mayib bo'ladi-da! Bu ishing yaramaydi, deb aytgan edim-ku!



Qobiljon indamay o'ylanib qoldi: endi nima bo'la-di? Rostdan ham bulbuljon uning bog'iga hech kirmasmikin-a?

– Kesak otmasam keladimi, dada? – dedi oxiri Qobiljon.

– Albatta, keladi, – deb ishontirdi dadasi.

– Bo'pti! – dedi Qobiljon va shu paytdan boshlab qushlarga kesak otmaydigan bo'ldi.

Olim aka xursand bo'lib, qushlar uchun taxtadan uya yasab berdi. Qobiljon suyuna-suyuna uni o'rik daraxtining tepasiga o'rnatib tushdi.

IKKI O'RTOQ

To'lqin bilan Marat yon qo'shni. Ikkalasi qalin o'rtoq. Sinfda ham bir partada o'tiradilar. Bir kuni Marat ruchkasini esidan chiqarib qo'yibdi. To'lqinda esa ikkita ruchka bor ekan. Marat undan:

– Bitta ruchkangni berib tur, o'rtoq, – deb so'ragan edi, To'lqin:

– Nega o'zingnikini esdan chiqarasan? Bermayman, – dedi.

Marat boshqa qistamadi. Shu kuni darsda hech narsa yozolmadi. Xo'p alam qildi.



Ertasiga ikki o'rtoq mактабга vaqtli borishdi. Dars tayyorlab o'tirish uchun papkalarini ochishdi. Shunda To'lqin qarasa papkada lineykasi yo'q. Esidan chiqarib, uyida qoldiribdi.

- Lineykangni berib turasanmi, Marat? – dedi yalinib To'lqin.
- Yo'q, bermayman! – dedi Marat kulib.
- Nima, sinib qoladimi?
- Bo'lmasa ruchkang yejilib qolarmidi?
- Bermasang berma! – dedi To'lqin arazlab, – hozir borib opkelaman.
- Borma, darsga kechikib qolasan.
- Kechikmayman. Hali o'n besh daqiqacha vaqt bor-ku!

To'lqin g'irillagancha chiqib ketayotgan edi, kordinorda o'qituvchi duch kelib:

- Ha, To'lqin, qayoqqa shoshilyapsan? – deb so'rab qoldi.

To'lqin uyda lineykasi qolganini, innaykeyin Maratdan so'rasha, bermayman deganini uyala-uyala aytib berdi.

Marat ham uyalib ketib, eshik orqasiga o'tib oldi.

O'qituvchi uni chaqirib so'radi:

- Shunaqami?



– Hazillashuvdim, – dedi Marat. – Berib turaman.

Ma, ol...

– Ha, shunday bo'lsin, – dedi o'qituvchi, – bir-birlaringdan hech narsani qizg'anmanglar! Undan keyin-chi, kerakli narsani hech vaqt uyda qoldirmanglar!

OPPOQ BUVANING NEVARALARI

Oppoq buva rovonda dam olib o'tiribdi. Nevaralari uyda radio tinglashyapti. Radiodan „Jo'jalarim”ni aytса, qo'shilishib aytishadi. Hindcha aytса, dikir-dikir o'yinga tushishadi. Sal o'tgach, katta ashula boshlangan edi kichik nevara:

– E, bu yaxshimas, o'chirib qo'yaman! – dedi. Katta nevara qaytardi!

– O'chirma. Oppoq buvam xafa bo'ladilar.

Kichik nevara rovonga chiqib:

– Oppoq buva, siz shu ashulani yaxshi ko'rasismi? – deb so'radi.

– Ha, oppoq qizim, juda yaxshi ko'raman, – dedi buvasi.

– Unaqa bo'lsa men ham juda yaxshi ko'raman, – dedi kichik nevara.

DADAM QURGAN DENGIZ

Oyim nuqul menga: „Hali go'daksan, hech narsa bilmaysan“, – deyaveradi.

Qiziq-a, qachongacha kichkina bo'laman. Uchin-chi sinfga o'tdim-ku. Bultur kitob-daftaram yarim papka edi, bu yil-chi, bir papka bo'ldi. Bultur kitobni tutilib o'qirdim. Bu yil dadamga uzun-uzun xatlar yozadigan bo'ldim.

Ha, bizning dada anchadan beri qurilishda, katta injener. To'g'risi, injener nima ish qiladi, o'zim ham bilmayman.

Oyimdan so'rasam, u:

- Daryoni bo'g'adi, suv ombori quradi, – dedi.
- Daryoni qanaqa qilib bo'g'adi? Suv ombori qanaqa bo'ladi? – desam, oyim yana:
- Baribir tushunmaysan, Qodirjon, hali go'daksan, – deydi.

Dadamning ishini borib ko'ray desam, adashib qolasan, deb yubormaydi. O'zi xo'jalik sigirxonasida ishlaydi. „Birgalashib borib kelaylik, sigirlaringizga dugonalaringiz bir kungina qarashvorar“, – desam, „Sigirlar qo'llimga o'rgangan, begonaga sog'dirmaydi“, – deydi.

Nima qilishimni bilmay yuruvdim, ta'tilda o'qituvchi opamiz sayohatga oboradigan bo'ldilar.

Suv ombori qishlog'imizdan ancha uzoqda ekan. Mashina qir oshdi, soy oshdi, bir vaqt bizni dasht o'rtasiga oborib tushirdi. Shundoq qarasam, hamma yoq suv.

Bolalar hovliqishib:

– Dengiz bu! Dengiz, – deb chuvillashib yuborishdi.

Ha, dengiz juda katta bo'ladi, qirg'oqlari ko'rinnmaydi deyishardi. Bu ham shunaqa, qirg'oqlari osmon-ga tutashib ketgan. Suvi shishaday, lekin daryoga o'xshab oqmaydi, vahima bilan chayqaladi, tog'-tog' bo'lib to'lqin uradi. Gala-gala qaldirg'och, oq qushlar kumush to'lqinlarga ko'kraklarini urib o'ynashadi. To'lqinlar orqasida, huv uzoqda bo'lsa, havorang kemacha suzib yuribdi.

Keyin qidira-qidira dadamni topib oldik. Dadam meni osmonga irg'itib-irg'itib erkatalib qo'ydi. O'zi rosayam oftobda qorayib, qo'llari juda kuchli bo'lib ketibdi. U bizning qurilishni ko'rgani kelganimizdan xursand bo'ldi.

– Qani, bu yoqqa, jiyanlar, bir chekkadan ko'rsataman, – dedi. Biz ketidan ergashdik. Avval bizni



to'g'onga olib chiqdi. Bu to'g'onning hamma yog'i betondan. „Shundoq mahkam qilib ishlanganki, ming yilda ham buzilmaydi“, – dedi dadam. Uzunligini aytmaysizmi – bu boshidan u boshi ko'rinxmaydi. Balandligi bo'lsa bir terak bo'yи keladi. Dadam shunday hikoya qildi:

– Ana shu to'g'on filday uzala tushdi-yu, o'jar daryoni xippa bo'g'di. Shu bilan daryoning arslonday hayqirib-pishqirishlari to'xtadi. Atrofda qancha-qancha yerlar suvga zor qovjirab yotardi-yu suvni chiqarib bo'lmasdi. Endi-chi? Endi daryoning bir tomchi suvi ham behuda isrof bo'lmaydi. Uni omborga qamab oldik. Yoz bo'yи dalalarga kerak bo'lganicha o'lchab-o'lchab chiqaramiz.

Biz „Qanday qilib“ deb angrayib qoldik.

– Buning uchun kanallar quriladi. Mana... – deb dadam bizni to'g'onning orqa tarafiga boshladi. Pastlikdagi sharsharani ko'rsatdi. Sharshara to'g'onning tagidagi odam sig'adigan kattakon quvurlardan otilib tushyapti. Otilib tushgan suv uch yoqqa bo'linib ketyapti. Dadam tushuntirdi:

– Anavi to'g'riga ketayotgan – daryoning eski izi. Ikki yoqqa ketgani – yangi kanallar, bu kanallardan odamlar yangi yerlarni sug'orishyapti.



– Bizning qishloqqa ham boradimi, amaki? – deb so'rashdi bolalar.

– Ha, albatta, – dedi dadam, – qishlog'imizga ham bu kanaldan ko'p suv boradi. Dalalar, ko'chalar, uylardagi ariqlardan sharqirab oqadi. Undan keyin, qarabsizki, paxtamiz ham mo'l, uzum-olmamiz ham, qovun-tarvuzilarimiz ham serob-da.

– Baliq-chi, amaki? – dedi baliqni yaxshi ko'radian Ochil. U shundan shunga baliq tutaman deb qarmog'ini ko'tarib kelgan edi.

– Hovuzlar qurib, baliqlarni ham ko'paytiramiz, – dedi dadam. Hovuz so'zini eshitishim bilan cho'milish esimga tushdi: „Endi maza. Issiq kunda terlab-pishib soyga bormaymiz, oyimizdan ham gap eshitmaymiz“.

Shu kuni dadam bizni xo'b tomosha qildirdi. Daryodan qum-shag'al chiqarayotgan ekskavator, tuproq surayotgan buldozer, yer tekislayotgan skreper mashinalarini ko'rsatdi.

Biz qurilishda kechgacha yurib zerikmadik. Hammadan ham qizig'i qaytishimizda bo'ldi. Dadam bizni „Bir dengiz sayri qilinglar“, deb havorang kemaga tushirdi. Kema to'lqinda chayqalib-chayqalib borardi. Rosti, avvaliga meni cho'chitdi. Lekin sir boy bermadim. Bir-birimizni mahkam ushlashib boraver-

dik. Dadamda bo'lsa, hech qo'rqish yo'q. O'tamizga tushib, bizni qo'shiq aytishga majbur qilardi. O'zimiz zo'rg'a turibmiz-ku, qo'shiq aytish qayyoqda. Sal o'tib, to'lqin pasaydi. Endi cho'chimadik. Qo'shiq ham boshlandi.

PALTOCHA

Qahraton qish. Oynaday muzlagan asfalt ko'cha. Uning chetida bir kampir diydiragancha turib, o'tgan mashinalarga qo'l ko'taradi. Uzoqdan bo'sh mashina ko'ringandi, kampir sirg'ana-sirg'ana uning qarshisiga chiqdi. Mashina g'iyqillagancha siypanib to'xtadi. Kabinadan haydovchining barmoq o'qtalib, bo'g'il-gancha allanima degani eshitildi. Jonholatda kampir mashinaga yopishdi, yalinib-yolvorgach, haydovchi ilojsiz eshikni ochdi.

– Qayerga borasiz, xola?

Shartta mashinaga o'tirib olgan kampir uzoqqa imo qildi.

– Vaqtim ziq, xola. Tushadigan joyingizni aytинг.

– Esginam qursin, – deb kampir peshanasiga urdi. U bundan bir soatcha burun allaqaysi avto-



bus bekatida sumkasini unutib qoldirgan ekan, shuni yig'lamoqdan beri bo'lib gapirdi.

- Sumkada nimalar bor edi, xola?
- Yangi paltocha, yana boshqa mayda-chuydalar...
- Bey, qoldirgan joyingizda turarmidi. Bosh ko'zingizdan sadaqa endi. Sumkangizda tilla yo'q ekan-ku, ishqilib!

Kampirning gumoni oshib, yuragi achishdi:

- Bugun navaramning tug'ilgan kuni. Paltochani mактабига kiyib bormoqchiydi.
- O'sha bekatda odam ko'pmidi, xola?
- U yonimda bir kishi, bu yonimda yelkasiga papka osgan qizaloq o'tiruvdi shekilli.
- Ko'rsangiz taniysizmi o'sha bekatni?

Kampir indamay, har tarafga alangladi. Haydovchingining toqati toq bo'ldi.

- Ortiq olib yurolmayman ko'chama-ko'cha, xola! Vokzalga chiqib ketyapman.
- Tag'in ozroq yur, jon bolam, manavi ko'chaga, – deya turib kampir birdan qichqirib yubordi, – ana, ana shu!

U cho'ntagidan pul chiqardi-da, haydovchingining yoniga tashladi.

Haydovchi buni bilmaganga olib, kampirni mashi-nadan tushirdi. Ko'k soyabon ostidagi o'rindiqda o'n yoshlar chamasi qizcha yelkasida papka, tizzasida jigarrang sumkani quchoqlagancha, diydirab o'tirardi. Kampir inqillab-sinqillab bordi-yu, qizchani bag'riga bosdi. Ko'karib ketgan betlarini silab-siypab:

- Voy, umringdan baraka topkur, voy tasad-dug'ing ketay, bolajonim-e, yaxshiyam sen borakan-san-a! – deya duo qila ketdi.
- Hali avtobusga tushayotganingizda ketingizdar sumkani oboruvdim, qaramasdan ketib qoldingiz, – dedi qizcha.
- Esginam qursin, – deb kampir duxoba paltos cho'ntagidan pul chiqarib, qizchaga uzatdi. Qizcha xuddi xunuk narsaga ko'zi tushganday ijirg'andi, pulni olmasdan kampirning betiga „Nima uchun?“ deganday kinoyali qarab qo'ydi-da, yo'lordan pildirab jo'nadi. Kampir uning ketidan:
 - Munchayam orli, tortinchoq bo'lmasang, hoy qiz, ismingni ham aytmading-a! – deb angraygancha qoldi.

BEK VA TABIB

Olis qishloqda yashovchi dehqonning Tilaboldi ismli yolg'iz o'g'li bor ekan. Bir kuni o'g'li og'ir kasalga chalinib qolibdi-da, dehqon uni sog'aytirish chorasini topa olmay qiynalibdi. Bir qariya:

– Falon joyda Jalol ismli zo'r tabib bor. O'g'lingizni sog'aytirish o'shaninggina qo'lidan keladi! – debdi. Dehqon aravaga ot qo'shib, o'g'lini olib jo'nabdi. O'ydim-chuqur dala toshlar, jazirama suvsiz qumliklardan o'tish oson bo'lmabdi. Yo'lda toshga tegib, aravaning bir g'ildiragi sinibdi. Dehqon aravani qoldirib, bolani otga mingashtirib jo'nashga majbur bo'libdi. Bir vaqt atrofni tuman chulg'ab ikki qadam narini ko'rib bo'lmay qolibdi. Egalaridan battar charchagan, ochlik, tashnalikdan madori ketgan ot tepalikka chiqishda munkib yiqilib jon beribdi. O'zi ozgan-to'zgan, kiyimlari shalvirab osilib qolgan bechora ota naqadar qiynalgan bo'lsa-da, irodasi kuchli bo'lganidan hamon maqsad sari talpinarkan. U ozib, sarg'ayib, bir parcha bo'lib qolgan farzandi-



ni yelkasiga ko'tarib, entika-entika olg'a siljiyveribdi. Qani endi bir tomchi suv!.. Bir burdagina non topilsa... Yo'q-yo'q, bu kimsasiz sahroda faqat azob bor. Olisdan bo'rilar ovozi eshtilgandek... Hech bo'lmasa tuman tarqala qolsaydi! Tuman tarqalishni istamasa-da, baribir... asta-sekin tarqalishga, quyosh nuridan chekinishga majbur bo'libdi. Ota-o'g'il baland adir ustidan o'tayotgan ekanlar. Birdan... adir bag'rida o'sgan o't-o'lanlar, pista daraxtlari yashnab ko'rinishdi, daraxtlar yaqinida tiniq buloq suvlari qaynab-toshib chiqib yotgan mish! Otaga qayta boshdan jon kirganday bo'libdi, ko'zlari quvonchdan chaqnab ketibdi. Tez o'g'lini yerga qo'yib hovuchida suv olib, unga ichiribdi. O'zi ham ichibdi. Badaniga kuch-quvvat, diliga shodlik yuguribdi. O'g'li ham o'zini yengil va tetik sezibdi. Suv shifobaxsh ekan! „Ota... bu qanaqa joy?“ so'rabdi o'g'lon. Shu chog' pastdan buloq tomon eshak haydab chiqib kelayotgan sallali kishi ko'rinishdi. U salom berib:

– Kimsizlar, bu joyda nima qilib turibsizlar? – deb so'rabdi. Uning tovushidan anday xavotirlik sezilar-kan.

– Jalol tabib degan donishmandga o'g'limni ko'rsatgani borayotgandim, – debdi dehqon, – yo'l



juda olis ekan, tinka-madorimiz qurib ketdi. Yaxshiki, bu yerda suv bor, bo'lmasa tabibning yoniga yetolmay shu yerda qolib ketardik.

– To'g'ri, bu suv ko'plarni o'limdan qutqargan, dardlariga davo bo'lgan! – debdi o'ychanlik bilan notanish kishi. – O'sha siz axtarib borayotgan Jalol tabib menman. Lekin ayting-chi, bu atrofda biror sirli ovoz eshitmadingizmi?

– Eshitmadik, nima edi?

Shu payt g'aroyib sado kelibdi:

– Buloqning siri endi uchovingizga ayon bo'ldi. Mol-dunyoga uchmay, el sog'ligi uchun fidokorona xizmat qilmoqchi bo'lsangiz, suvdan foydalanishlaringizga ruxsat! Lekin bu yerni shaxsiy boyishga ishlatmoqchi bo'lgan olg'irlardan saqlang!

Ovoz tinib uchovlon o'ylanib qolibdi. Nihoyat Jalol tabib so'z boshlabdi:

– Bu suvning qaysi dardlarga davo bo'lish xususiyatlarini yaxshi o'rgandim! Biroq bu yer haqida hech kimga og'iz ochmadim. Sababi, bu joyni ochko'z kishilar egallab olishidan qo'rqedim. O'zim esa uni mesh xaltalarda olib borib, bemorlarni davoladim. Kelinglar, endi birgalashib u yerni obod qilaylik.

Shunday qilib, ular buloq atrofini obodonlashtirishga kirishibdi. Kasallar shifobaxsh suv haqida eshitib, davolanishga kela boshlabdilar. Xizmatkorlarini ergashtirib, Mag'rurbek degan bir bek ham saman otini yo'rttirib kelib qolibdi. Suvdan ichib, cho'milib, dardlaridan xalos bo'lgach buyuribdi:

– Buloq atroflarini qo'rg'on bilan o'rang, tekinga hech kimga bir tomchi ham suv bermang, endi bu yer menin mulkim bo'ladi!

Tabib va ota-bola bu so'zdan shoshib qolibdi.

Tabib:

– Hoy, bek og'a! Suv barchaga qarashli! Agar undan kimki shaxsiy boylik orttirishga urinsa chasma qurib qoladi. Kishilarni shunday zo'r ne'matdan mahrum qilmoqchimisiz, bu fikringizdan qayting, – degan ekan. U:

– Nima, menga aql o'rgatmoqchimisan? Teringga somon tiqdiraman, – deb dag'dag'a qolibdi.

Birdan... buloqdan bir tomchi ham suv chiqmay qolibdi!

– Iya, suv qayga yo'qoldi? Qazing! Suv chiqaring!!! – xizmatkorlariga buyuribdi bek.

Biroq qancha qazib, ovora bo'lishmasin suv ko'rinxabdi. Quyosh atrofni tobora qizdirib, qovjira-



ta boshlabdi. Nafas olish og'irlashibdi. Bek noiloj navkarlarini boshlab, jo'nab ketibdi. Ular ketishlari bilanoq buloq qayta mavj uribdi.


Hozir u joy tabib ismiga – „Jalolobod“ atalib qolgan ekan. O'sha buloq hozir ham bor.

MARSDAN KELGAN...

Anorlarning sersharbatligi, shifobaxshligi bilan dunyoga tanilgan bir qishloq bor ekan. Qishloq anor-zorlaridan birida qari bir chol bog'bonlik qilar, Zumradxon degan nabirasi unga yordam berar ekan. Bir kuni bog'da ishlayotgan ekanlar, osmondan ularning yoniga boshiga kosmonavtlar qalpog'ini kiygan bir kishi kelib tushibdi. Chol mehmonni ko'rib, angrayib qolibdi. Ishini to'xtatib, qaddini rostlabdi. Nimadan gap boshlashni bilmay turgan ekan, Zumradxon qiziqib:

– Amaki, kimsiz? Bunaqa kiyimlarni kiyib, bu yoqlarda nima qilib yuribsiz? Osmonga uchishni mashq qilib yurganlardanmisiz? – deb so'rab qolibdi.

Qizchaning so'zini eshitib mehmonning yuzlari quvonchdan yorishib ketibdi va:





– Ha... Men yaxshi tushunadigan tilda so'zlashar ekansizlar. Bu juda yaxshi bo'ldi. Bo'lmasa sizlarga o'z maqsadimni qanday tushuntira olardim, dilimda ana shu zo'r tashvish edi, – debdi.

Chol bilan qizcha bu gapga battar hayron bo'lishibdi.

– Chet mamlakatdan keldingizmi deyman! – debdi chol.

– Tag'in siz yana bizga ziyon yetkazishni o'ylab kelgan bo'lmang? – debdi qizcha.

Mehmonning kipriklari pir-pir uchibdi. U jahl bilan qalpog'ini yechib, qo'liga shapillatib uribdi. Maysa ustiga o'tirib olib, piqillab yig'lay boshlabdi.

Chol bilan qizcha hayron bo'lib, bir-birlariga savol nazari bilan boqishibdi. Keyin chol mehmonga ya-qinroq borib, undan hol-ahvol so'rabdi.

– Yig'lama, o'g'lim, balki senga nohaq alam o't-kazgandirmiz. Nohaq ayblanishdan og'ir azob yo'q. Do'stlik maqsadi bilan kelgan bo'lsang, tortinmay so'zlayver. Kimsan o'zing?

Mehmon kuyunib so'z boshlabdi:

– O, yaxshilar! – debdi u. – Men yer kishisi emasman. Men Mars yulduzining fuqarolaridanman.



Boshimga og'ir kulfat tushib qoldi. Onam kasal yotibdi. Uni mashhur tabiblarga ko'rsatdim. Hech kim uning dardiga davo topa olmadi. Oxiri bir qari professor Abu Ali ibn Sino ismli olimning „Alqonun“ kitobidan shunday satrlarni o'qidim: „... Bu toifa kasalning dardiga anor mevasi em bo'lur. Shu mevaning sharbatini kasalga ichirilsa, kasal shifo topur...“

Bizning Mars tomonlarimizda anor nima ekanini hech kim bilmaydi. Bu mevani qanday topib bo'ladi? Olimlar yig'ilishib, maslahat qilishdi. Eski tarixiy kitoblarni titkilab, anorning qayda o'sishini aniqladilar. Bir vaqtlar bobolarimizdan biri shu tomonlarga uchib kelib, qaytishda o'sha „Alqonun“ kitobini va boshqa bir necha kitoblarni olib ketgan ekan. Kitoblardan ma'lum bo'ldiki, anor Farg'onaning Quva degan yerida ko'p o'sar ekan. Ana shu mevani izlab, yerga tomon uchdim. Qancha bo'ron-u sovuqlardan, yiroq yo'l, xavf-u xatarlardan o'tib, oxiri mana shu diyoringizga yetdim. Bu orada bechora onam o'lib qoldimi yoki hayotmi? Dilim qayg'u-alamdan ming pora bo'lyapti-ku, sizlar mendan shubhalanib ta'bimni xira qilyapsizlar...

Bu so'zlarni eshitgan chol:



– Bilmay senga ozor bergen bo'lsak, kechir. E, Mars o'g'loni! So'zingga ishondik. Lekin sezyapmanki, ishing tiqilinch. Vaqting ziq. Mana... mana shu anorlar-dan uzib olgin-da, tezda onangga olib bor! – debdi.

Mars odami rahmat aytibdi. Shoshilib anorlardan uzmoqchi bo'lib qo'l uzatgan ekan, chol:

– To'xta, o'g'lim! Sen pishmaganlarni uzmoq-chisan-ku, pishganidan o'zim uzib berayin, – deb mehmonga bir talay anor uzib beribdi.

Mehmon rahmat aytib, cholning mehnatda chiniq-qan zabardast qo'lini o'pibdi.

Bo'yi yuqoriga cho'zila boshlabdi. Ikki biqini-dan kumush qanot paydo bo'libdi. U ko'kka tomon uchib, bir zumda ko'zdan g'oyib bo'libdi. Qiz bilan chol xayrashib uni kuzatib qolibdilar.

Oradan bir necha oy o'tgach, Mars odami yana qaytib kelibdi.

Bu gal u juda shod ekan. Aziz onajonisi anor shar-batidan ichib sog'ayib ketganmish. Bola uchun onani shod, baxtiyor, sog'lom ko'rishdan katta baxt bormi dunyoda? Yigitning ismi avval „Xolmat“ ekan. Endi u shifobaxsh meva sharafiga o'zining ismini „Anorboy“, deb atabdi. U bog'bonni nabirasi bilan Marsga meh-



monga taklif qilib ketibdi. Bobo bilan nabirasi Anorboyning uyiga mehmon bo'lib borishmoqchi emish. Lekin qachon borishadi, bundan xabarimiz yo'q.

SHERNING DO'STI

Rahimbobo ismli bir tabib yasharkan. O'rmondan shifobaxsh giyohlarni izlab topib, shu bilan bemorlarni davolarkan. Qaysi dardga davo ekanligini unga o'simliklarning o'zlari aytib beradi, deyisharkan.

Tabib o'simlik tilinigina emas, qushlar-hayvonlar tilini ham yaxshi bilarkan. Bir kuni u o'rmonga giyohlar izlab borganida qattiq ingrash tovushini eshitibdi. Qarasa hayvonlar shohi sher azoblanib yotganmis. Yuragida achishish, yordam uchun oshiqish hissi qo'zg'algan tabib sherga yaqin borib ahvol so'rabdi.

Sher uni tanib:

– O, barchaga aziz, hurmatli tabib, panjamga kрган тикан zahridan azobdamан, sog'aytiring, – deb o'tinibdi.

– Qani...

Tabib sherning panjasini silab bosib qarabdi va aytibdi:



– Panjangizni sog'aytiraman albatta, lekin tikan chuqur botgan ekan, tortib olay desam siz og'riq zo'ridan o'zingizni u yoq-bu yoqqa urib meni tasodifan o'ldirib qo'yasiz. Shuning uchun bunday qilamiz: bir yoningizdan chuqur o'ra kovlayman, shunga tushib tikanni pastga tortaman, jarohatingizning zardoblari ham o'raka to'kiladi.

– Roziman, iloji bo'lsa tezroq davolasangiz.

– Xo'p bo'ladi pahlavonim!

Tabib kurak olib kelib chuqur o'ra qazib, o'raning bir tomonini kamar qilibdi. Pastda turib bor kuchi bilan sherning panjasidagi tikanni tortgan ekan, sher o'zini u yon-bu yonga urib shunday baqiribdiki, osmon yerga yiqilganday bo'libdi. Daraxtlar ag'darilibdi, daryo chayqalibdi. Atrofdagi barcha jondor vahimaga tushib qaltirab, qushlar qo'noqlaridan ag'anab tushibdi. Sherning panjasidan yiring-qon o'raka oqibdi. Sher yengil nafas olib tabibni chaqiribdi. Tabib o'zi qazigan kamarga kirib olib sher tinchishini kutayotgan ekan, o'radan chiqib yarani ko'ribdi. Malham surtib bog'lab qo'yibdi.

– Mana endi sog'ayasiz, pahlavonim, shu yerda bir necha kun yoting. Sizni davolab, ovqatingizdan

xabar olib turaman, – debdi. Ovqat, suv beribdi, yarasiga malham qo'yibdi, nihoyat sher sog'ayib qaddini rostlabdi:

– E, jon darmoni Rahimbobo, – debdi u. – Meni og'ir azobdan, balki o'lidan qutqardingiz, yaxshilingizni sira unutmayman, rahmat! Gap bunday: endi siz bilan umrbod do'st-birodarmiz. Sizga biron xavf sharpa salsa „Shervoy!“ deb chaqirsangiz qayerda bo'lsam ham yordamga yetib kelaman, xayr...

Ana shu kundan boshlab ular qalin do'st tutinishibdi. Tabibga katta ilon hujum qilmoqchi bo'lganda tabib „Shervoy“ deb chaqirgan ekan, sher yetib kelib ilonni chetga uloqtiribdi. Tabib suv toshqinida cho'ka boshlaganida uni yelkasidan tishlab qirg'oqqa olib chiqibdi. Tabib ham uni yovuz kishilar o'qidan, qopqonidan saqlashga harakat qilarkan. Oxiri tabib qazo qilib, uni tog' yonidagi katta chinor daraxti soyasiga ko'mibdilar. Ba'zan tog' tomondan ulug'vor sher tushib kelar, qabr yoniga kelib asta unga bosh qo'yar va yalar, so'ngra orqasiga tisarilib o'rmonga kirib ketar, ba'zan bolalarini ham boshlab kelarkan.



O'QILON VA NON

Qadim zamonda allaqaysi bir shahar novvoylari o'z hunarlari bilan dong taratgan ekanlar. Nonni hech kim ularchalik laziz va ko'rkar yopa bilmas ekan. Shuning uchun ular yashaydigan joy „Sehrgar novvoylar makoni“ deb atalarkan. Biror kimsa safarga chiqsa: „Yo'lda hamrohim, xavf-u xatarlardan saqlanishda madadkorim bo'ladi“, deb o'zi bilan non olib ketarkan. Kunlardan bir kuni Qosim ismli yigit ham qo'yniga non solib yo'lga chiqibdi. Yo'l yirtqich hayvonlar va qaroqchilardan xoli emas ekan. Eng dahshatlisi tog' o'ngirida yovuz o'qilon yashar ekan. O'qilon kuchli dumi ila urib quloch yetmas chinorni ham tag-tomiri bilan ag'darib tashlar ekan. Ilon shu kuni o'lja topa olmay qahrga mingan vaqtida, so'qmoq yo'ldan kelayotgan Qosimni ko'rib qolibdi. Xarsang tosh orqasiga o'tib pusibdi, yigit yaqin kelishi hamono to'satdan sapchib dumi bilan uning ko'ksiga zarb bilan uribdi. Lekin kutilmagan hodisa yuz beribdi. Olamni olov bo'roni qoplaganday, tog'lar dahshat bilan qulaganday bo'libdi. Og'riq alamiga chiday olmagan ilon arang ko'z ochib, o'zini yerda



chilparchin yotganini ko'ribdi. Yigit esa qarshisida eson-omon turganmish. O'qilon hayratlanibdi.

– Vishsh... bu qanaqasi bo'ldi? – deb qichqiribdi u alam bilan. – Bu qanaqasi bo'ldi? Bir zarb bilan quloch yetmas chinorni ag'darib tashlar edim, uydan katta toshlarni teshib o'tish menga pisand emasdi! Endi kelib-kelib kimdan – sendan yengilib o'tirib-manmi? Sen sababli tishimdan ayrildim. Bunda bir sir bor albatta. Ayt, kimsan o'zing, devmisan, parimisan?

Shunda yigit qo'ynidagi quyoshsifat porlagan nonni olib ko'rsatibdi:

– Barcha gap shu aziz nonda. Bunga sehrimiz kuchi, dehqonlar, novvoylar mehnati singgan. Ko'ksimga tafti, ona yurtimiz qudrati, mehri singgan. Ko'ksimga qalqon bo'lgan bu aziz tilsimga tishing o'tarmidi?! Yo'limni to'sma, yovuz!

O'qilon sudralib jo'nab qolibdi. O'shandan buyon u kishilar ko'ziga qayta ko'rinnasmish. Yigit esa yo'iliga ravona bo'libdi. Olis shahardagi qadrdon do'stlari, o'rtoqlari bilan omon-eson ko'rishibdi, yurtiga qaytganida nonni ham o'zi bilan olib qaytib, o'pib e'zozlab, safaridan xotira sifatida uy to'riga ilib qo'yibdi.

OLTIN GUL

Kichkina Xan-su aqlli, juda tirishqoq qiz. Uni hamma yaxshi ko'radi. Quyosh ham Xan-suni juda-juda sevib qolgan. Bir kuni oyisi Xan-suga bir jurnaldagi rasmni ko'rsatdi. Yoqimtoy bir bola unga qarab qo'lini silkib, jilmayib turardi.

– Bu Sharof degan bola, sening do'sting, – dedi oyisi. – Qara, uzoq yurtdan senga salom yuboribdi!

Keyin oyisi o'sha uzoqdagi do'st o'lka haqida gapirib berdi.

– Mening do'stim? – dedi Xan-su sevinganidan rasmni bag'riga bosib. – Oyijon, buni menga bering-a!

– Mayli, olaqol, – dedi oyisi. – Yirtmagin, xo'pmi?

Xan-su rasmni qo'lidan qo'ymay olib yurdi, do'stini juda-juda yaxshi ko'rib qoldi. Do'stiga eng yaxshi o'yinchoqlarini bergisi, unga deb bog'dan gul tergisi keldi. Lekin do'sti uzoqda-da...

– Sharofning oldiga qush uchib boradimi-a, oyil? – so'rab qoldi u bir kun oyisidan.

– Ha, qush uchib boradi, – dedi oyisi.

Xan-su qog'ozdan qush yasay boshladi. U qunt bilan ishladi, lekin qushi o'xshamadi. Quyosh bo'lsa, Xan-su albatta qush yasaydi, deb kuzatib turdi.

Oxiri Xan-su oppoq, chiroyli qushcha yasadi. Qushcha xuddi uchib ketay-uchib ketay derdi. Keyin Xan-su qog'ozga gul sola boshladi, ko'p urinib, ajoyib bir gul soldi: xuddi rostakam gulga o'xshadi. Xan-su uni buklab, ip bilan qushchaning bo'yniga osib qo'ydi. Qushchani avaylab qo'liga oldi-da, yugurib bog'ga chiqdi. Bunday qarasa, Quyosh jilmayib uni kutib turgan ekan.

– Quyosh, jon Quyosh! Qushchamni isit, tirilsin, – deb yalindi Xan-su. – Boshi ham, oyog'i ham, qanoti ham rostakam qushnikidek bo'lzin. Uchib borib, do'stim Sharofga sovg'amni yetkazsin.

– Xo'p, – dedi Quyosh, – jonim bilan!

U iliq, yoqimli nuri bilan isitgan edi, qushchaga jon kirdi. Qizning qo'lidan uchib chiqib, pir etib shoxga borib qo'ndi. Xan-su sevinib ketdi.

Shunda u yelib-yugurib kelgan Shamolni ko'rdi-da:

– Shamol, hoy Shamol! Yordam ber, bo'lmasa qushcham charchab qoladi! – deb yalindi. – Sharofga sovg'amni olib borib bersin!





– Xo'p, – dedi Shamol, – jonim bilan!
Shamol qushchani uchirib ketdi.

Xan-suning qushchasi uch kecha-yu uch kunduz
baland-balando'ndi. Oxiri u uchaverib charchadi-da, bir daryoning
bo'yidagi daraxt shoxiga kelib qo'ndi. Shamol bo'lsa,
hordiq olay deb, tog' orasiga kirib ketdi.

Shunda dumi uzun, tumshug'i sariq bir qush
Xan-suning qushchasini ko'rib:

– Qaydan kelding? Nimasan o'zing? – deb so'ra-
di va hayron bo'lib uning bo'ynidagi osig'liq qog'oz-
ga qarab qo'ydi.

– Nima bo'lardim, qushman-da!
– Iya, qushmish-a! Qush bo'lsang, qani, sayra-
chi! – dedi bitta chittak kekkayib.

Qushcha bo'ynini qisib, indamay qoldi. U hali
sayrab ko'rмаган edi-da.

– Qani, tez bo'l, sayra! – deb do'q qildi allaqa-
yoqdan yetib kelgan olaqarg'a.

– Bu qush emas! – deb chug'urlashdi boshqa
qushlar. – Kelinglar, adabini berib qo'yamiz!

Qushlar uni toza cho'qishdi.

Bu shovqinni eshitib qolgan oq kaptar kelib shox-
ga qo'ndi:



- Nega uni xafa qilyapsiz?
- Buni ko'r, qushman deydi-ya!
- Ha, men qushman. Xan-suning qushchasi-man, – dedi qushcha. Keyin nima bo'lganini bir-ma-bir aytib berdi. – Mana bu sovg'ani Xan-suning do'sti Sharofga olib kelyapman, – deb u bo'yniga osig'liq qog'ozni silkib qo'ydi.
- Rahmat! – dedi kaptar. – Juda katta ish qilib-san. Sen haqiqiy qushsan! Yur, Sharofning oldiga boshlab boraman, men uni taniyman. Juda yaxshi, aqli bola.

Kaptar bilan qushcha zangori osmonga ko'tarildi. Ular uchib-uchib bir bog'dagi daraxtga kelib qo'nishdi. Bog'da o'ynab yurgan bolalar qushlarni ko'rib, chopib kelishdi. Shunda kaptar:

– Sharof! – deb qichqirdi.
Sharof degan qora ko'z, durkungina bola daraxt tepasiga qaragan edi, shoxda qo'nib turgan ikki qushni ko'rdi.

- Meni kim chaqirdi? – deb so'radi u.
- Mana, senga do'sting Xan-sudan sovg'a olib keldim, – deb qushcha bo'yniga osig'liq qog'ozni unga tashladi.



Sharof buklangan qog'ozni olib ochgan edi, qog'oz ichidagi gul yayrab, barglarini rostlab, ochilib ketdi.

Voy, qanday ajoyib gul! Bunday gulni hech kim, hech qachon ko'rganmas! Bargi kumush, o'rtasi yoqut, oltin gul! U kichik quyoshdek hamma yoqni yoritib yubordi! Bu yerga to'plangan bolalarning og'zi ochilib qoldi. Hayron bo'lganidan qushchaning ham tumshug'i ochildi. „Iya, – dedi u ichida, – Xan-suning sovg'asi qog'oz gul edi-ku, qanday qilib oltin gul bo'lib qoldi ekan?“

Ha, Xan-su gulini qog'ozdan yasagan. Lekin u do'stini chin ko'ngildan sevganidan bu gulni yuragidan qaynab chiqqan mehr-muhabbati bilan yasagan. Quyosh bo'lsa unga iliq, oltin nurlarini qo'shgan. Gul shunda oltinga aylangan. Oy ham bu mehribon qizning guliga o'z shu'lalarini sochgan. Natijada gulning bargi kumush bo'lib qolgan. Gulni ko'rib yulduzlarning ham havasi kelgan. Ular gul ichiga o'z nurlaridan cho'g'dek yoqut qadab qo'yishgan.

Shunday qilib, Xan-suning do'stlik sovg'asi: bargi kumush, ichiga yoqut qadalgan oltin gul bo'lib qolgan.

Do'stlik mehri ana shunday ajoyib, bebahoda!



NIGORA

Nigora fartugini kiydi, keyin stol yoniga ikki kursini sudrab kelib, bittasining ustiga kattagina tovoqni qo'ydi-da, unga suv quydi. Keyin o'zi bir kursiga chiqib, tovoqni stolga oldi. Oyisidek yengini shimarib, stoldagi idish-tovoqlarni yuva boshladi.

Uch-to'rt kun bo'ldi – buvisi kasal. Oyisi kechqurun buvisiga dori-darmon beradi, uni vannaga soladi, ovqat pishiradi. Ertalab bo'lsa, ishga kechikaman, deb shoshilib, idish-tovoqlar yuvuqsiz qoladi. Ertalab Nigorani bog'chaga oyisi olib boradi. Kechqurun bo'lsa, Valining oyisi olib keladi. Buvisining kasal bo'lib yotib qolgani juda-juda yomon bo'ldi-da. Kasal bo'lib nima qilar ekanlar-a?

Nigora idishlarni sindirib qo'ymay deb qo'rqib, ehtiyyot qilib yuvdi. Yuvuqsiz idish-tovoq anchagini ekan, qarang, butun stol to'lib ketdi. Keyin u sochiqni olib, idishlarni arta boshladi. Shunda bir piyola qo'lidan taq etib tushib ketdi. Nigora qo'rqqanidan: „Voy!“ deb ko'zini chirt yumib oldi. „Sindirib qo'ydim!“ – dedi o'zi-o'ziga. Keyin ko'zini sal ochib qaradi, qarasa, piyola stolda yonboshlab yotibdi. Qo'lini uzatib, piyolani olgani botinmay turdi. Keyin

olib ko'rsa, butun ekan. Sevinchidan yuragi dukillab ketdi: „Sinmabdi!“

Nigora idishlarni yaxshilab arta boshladи. Artib bo'lib, ustma-ust taxlab qo'ydi. Sochiqni olib, endi ularning ustiga yopayotgan edi, eshikdan oyisi kirib keldi. Ikki qo'lida ikkita sumka, yukining og'irligidan-mi, shoshilganidanmi terlab ketibdi.

Kursida tippa-tik turgan qizini ko'rib, uning jahli chiqqandek bo'ldi.

– Nima qilib turibsан? – deb hayron bo'lib so'radi u qizidan.

Nigora indamay, hadeb qo'lini fartugiga artib: „So'ramasdan qilganimga urisharmikinlar-a?“ – deb o'ylab turardi.

Oyisi stol oldiga kelib, sochiqni ko'tardi. Top-toza yuvib qo'yilgan idish-tovoqlarni ko'rib, yuzi yorishib ketdi.

– Buvung turdilarmi? – dedi u. Shunda Nigora:
– Men yuvib qo'ydim, oyil! – dedi sevinib. Oyisi yana ham xursand bo'lib ketdi. U:
– Voy oppoq qizim-ey, oyingga qarashib-san-da, – dedi. Qizining yuzidan o'pdi-da, kursidan yerga tushirib qo'ydi. Keyin shoshib-pishib ovqatga unnab ketdi.



Avval akasi matabdan qaytdi. Keyin uyga dadasi kirib keldi. U kiyimini yechib, endi qo'lini yuvgan edi, oyisi bir lagan oshni stolga keltirib qo'ydi.

- Kelinglar, ovqat sovib qoladi.
- Nechuk bugun ovqat barvaqt pishibdi? – deb so'radi dadasi.
- Ishdan kelsam, qizingiz idish-tovoqlarni yuvib qo'yibdi, tez ovqatga urinib ketdim, – dedi jilmayib oyisi.

– Barakalla, ona qizim, qani-qani, bir achom qilay, – deb dadasi qizini quchoqlab peshanasidan o'pdi-da, stol yonidagi kursiga o'tqazib qo'ydi.

Hamma ovqatga o'tirdi. Belini ushlab, inqillab-sinqillab narigi uydan buvisi ham chiqdi.

– Bugun osh mazali bo'libdi, – dedi dadasi, oshni ishtaha bilan yer ekan.

Nigora oshdan ozgina yeb ko'rgan edi, rostdan ham juda-juda shirin ekan.

Hamma xursand bo'lganidan keyin ovqat ham shirin bo'ladi-da!

MEHRIBON O'RTOQ

Qarang, gullar chaman-chaman bo'lib ochilibdi-ya. Uzib olging keladi. Yo'q, gulni uzib bo'lmaydi. Nega desangiz, uni bog'cha bolalari opalari bilan birga ko'kartirgan. Ular ham gulga sira tegmay, ehtiyot qilishadi. Gulzor atrofida ashula aytib, o'ynashadi, kapalakdek yelib-yugurishadi.

Shu bog'chada bugun nima bo'ldi deng?

Botir Qunduzning boshidagi chiroyli, oppoq len-tasiga chang solib: „Menga ber“, deb yopishib oldi. Qunduz qochaman deb qoqilib yiqildi va yig'lab yubordi. Juda yomon yiqilgandi-da.

Shunda O'lmaston yugurib uning oldiga kel-di. Qunduzni o'rnidan turg'azdi. Ko'ylagini qoqdi. Cho'ntagidan ro'molchasini olib burnini artib qo'ydi.

– Qo'y, yig'lama, – dedi, yana yuzini silab.

Yig'i ovozini eshitgan bog'cha opa tashvishlanib derazadan hovliga qaradi. O'lmastonning o'rtog'iga qilayotgan mehribonligini ko'rди-da, ko'ngli tinchib jilmayib qo'ydi.

Bolalarning uy-uylariga ketadigan payti bo'ldi. Bog'cha opa bolalarni hovliga boshlab chiqdi. U uy-ilariga ketayotgan bolalarga:

– Bolalar, mening atrofimga to'planinglar-chi, – dedi.
Bolalar opalari atrofida to'p bo'lishdi.

– Bolalar, O'lmasxon bugun juda yaxshi ish qildi, – dedi bog'cha opa O'lmasxonning peshanasini silab. – O'rtog'iga mehribonchilik qildi.

U ko'rghanlarini bolalarga aytib berdi.

Botir bo'lqa, lip etib Erkining orqasiga bekinib oldi. Bog'cha opa Botirning yomon qilig'ini ko'rma-gandi-da, ko'rghanida bormi, bog'cha bolasiga yarash-maydigan bu qilig'i uchun o'rtoqlari oldida uyaltirardi.

– Bolalar, qalay, O'lmasxon o'rtog'iga yordam berib yaxshi ish qilibdimi? – deb so'radi bog'cha opa.

– Juda yaxshi ish qilibdi, biz ham shunday bo'lamiz! – deyishdi shovqin solib bolalar.

– O'lmasxonga gul sovg'a qilsak deyman, sovg'a qilamizmi, bolalar?

– Sovg'a qilamiz! – deb yana qichqirishdi bolalar. Bog'cha opa gulzorga kirib eng chiroyli, eng xushbo'y qip-qizil atirgulni uzib oldi-da, O'lmasxonga berdi. Va:

– Rahmat senga! – dedi.

O'lmasxon bog'cha opasining „rahmat“i xuddi o'sha qizil gul ichida turgandek, uni ehtiyotlab, baland ko'tarib oyisi oldiga yugurdi.

ZUBAYDA BILAN HUVAYDA

Bir kuni Huvayda „Yuringlar biznikiga, o'ynaymiz“, deb qizlarni hovlisiga boshlab ketayotganda Zubaydaga ko'zi tushib:

– Hoy, sen kirma! – deb darvozani berkitib qo'ydi.

Zubayda unga yomon gapirmadi ham, darvozani itarmadi ham, faqat dili og'rib, nega meni haydadi, deb o'ylab qo'ydi, xolos.

Huvaydaning katta zavodda bosh muhandis bo'lib ishlaydigan oyisiga har kuni oynadek yaraqlagan, novvotrang mashina keladi. Mashinaning ichiga guldor duxobali gilam solingan. Qo'shni bolalarning mashinaga havasi keladi, kelib to'xtadi deguncha uni o'rab olishadi. O'shanda Huvayda uyidan chiqadi-da, eshigini ochib, mashinaga o'tirib oladi.

Bugun ham bolalar to'planib turishganda uydan yangi ko'ylak, nimcha kiygan, qulog'iga katta yoqut ko'zli zirak taqib, qo'g'irchoqdek yasanib olgan Huvayda chiqib qoldi.

Kekkayib mashina oldiga keldi-da, eshigini ochib, haydovchining joyiga o'tirib oldi. Bolalarga maqtanib qarab ham qo'ydi. Keyin xuddi mashinaning xo'ja-yiniday:



– Mayli, sizlar ham chiqinglar! – dedi.

Bir bola, uchta qiz mashinaga chiqib o'tirishdi. Ularning ketidan Zubayda ham endi oyog'ini zinaga qo'yib chiqayotgan edi, Huvayda uni ko'kragidan itardi:

– Hoy, sen chiqma, mashinani kir qilasan!

Zubayda hayron bo'lib etagiga qaradi:

– Qani, top-toza-ku!

Ha, ko'ylagi toza, faqat eskirib ketgan edi.

– Hoy, senga aytyapman, tush deyapman, tush! – Huvayda qovog'ini solib o'dag'ayladi. Keyin Zubaydani mashinadan nari itarib, eshigini taraqlatib yopib qo'ydi.

Zubayda orqasiga tisarildi-da, yiqilib yerga o'tirib qoldi. Bolalar xaxolab kulishdi. Zubaydaning xo'rligi keldi, tomog'iga bir nima tiqilgandek bo'ldi, kiprigining uchidan ikki tomchi yosh uzilib, yuzidan yumalab ketdi.

O'shanda yaxshiyamki, oyisi chaqirib qoldi. U qo'-lining orqasi bilan yuzini artib, uyiga kirib ketdi.

– Rost-da, oyimning mashinalari kir bo'lib qolsinmi! – dedi Huvayda va gilamni qo'li bilan silab qo'ydi. – Bu-chi, manavi ko'ylagim, nimchamdaqa ipak!

Oyimlarni idorasida ham shunaqa ipak gilam yo-zug'lik. Oyimlarni telefonlari juda ko'p. Birini qulqlariga tutadilar, uni qo'yib yana boshqasini oladilar. Men ham gaplashganman. Sora, sen-chi, borganing bilan oyimning oldilariga qo'yishmaydi, darvoza oldida qorovul turadi!

– Qayda yuribsan, qizim, ukangga qara, – dedi Zubaydaning oyisi qizini ko'rib.

Zubayda ukasini bag'rige bosdi, u opasining pin-jiga kirib, yig'idan to'xtadi. Zubayda ayvon labida o'tirib, o'ylab qoldi. Huvaydaning: „Kir qilasan!“ degani hamon uning yuragini timdalardi. U kuni nega uylariga qo'ymaganini ham endi bilib oldi. Ko'ylagi eski bo'lgani uchun shunday qildi-da!.. Mensimaydi... Uning ham yangi ko'ylagi bor, uyda ko'ylagi butun, toza bo'lsa bo'pti-da...

Zubayda bilan Huvayda sinfdosh, ikkinchi sinfda o'qishadi. Zubayda birinchi partada, Huvayda bo'lsa o'qituvchidan panaroq joyda, eng orqadagi partada o'tiradi.

Dars boshlandi. O'qituvchi Habiba opa uyida ko'rib kelgan daftarlarni o'quvchilarga qaytarib bera boshladidi. U Zubaydaga daftarini berdi. Oppoq daftar betidagi qip-qizil yuqori ball cho'g'dek yonib turardi.



O'qituvchi keyin Huvaydaning daftarini oldi. Huvayda jildiga yog' tekkan arifmetika daftarini darrov tanidi-da, o'zini panaga olib, yelkasini qisdi. O'qituvchi uni oldiga chaqirdi. Huvayda sekin yurib' uning oldiga bordi. O'qituvchi daftarni ushlaganicha, labini tishlab, birpas unga tikilib turdi. Uning daftar ushlab turgan qo'li Huvaydaga titrayotgandek tuyuldi. U boshini egib, yerga qaradi.

– Huvayda, – dedi o'qituvchi xo'rsinib, – nima deyishimni ham bilmay qoldim... Yana past ball?... Muncha o'sha past bahoni yaxshi ko'rasan? Sen o'zingnigina emas, butun sinfni yerga qaratadigan bo'lding!...

O'qituvchi Huvaydani bolalar oldida qattiq uyaltir-di. Huvayda piqillab yig'lab yubordi. U ikki qo'li bilan ko'zini ishqlab, o'rtoqlari oldida tik turardi. Zubay-daning unga juda rahmi keldi.

O'qituvchi u yoqdan-bu yoqqa yurdi, keyin to'xtab sinfga qaradi, bolalar qimir etmay, unga tikilib turi-shardi.

– Zubayda, – deb qoldi u. Hayron bo'lgan Zubayda dik etib o'rnidan turdi. – Sen Huvayda bilan qo'shnisan, bir joyda turasan. Kel, qizim, o'rtog'inga bir yordam qil, past baholaridan qutulib olsin.

Uyalib ketgan Zubayda xo'p degandek boshini qimirlatib qo'ydi.

Shunda Zubayda bilan bir partada o'tirgan Lola:

– Zubayda unga yordam berib bo'pti! – deb qoldi.

Hamma ajablanib unga qaradi. Qizarib ketgan Lola ko'zini katta ochib o'qituvchiga tikilib turardi.

– Ha, nega? – dedi o'qituvchi.

– Zubaydani u uyidan haydab yubordi, kir qilasan deb oyisining mashinasiga o'tqizmay, itarib yiqitdi. U shunaqa qiz...

Huvayda endi yig'ini qo'yib, Lolaga o'qrayar: „Chaqimchi!“ – degisi kelardi. Zubayda bo'lsa boshini egib olgan, hech kimga qaramasdi.

– Iya, hali shundaymi? Juda yomon bo'libdi-ku! – dedi o'qituvchi Huvaydaga o'girilib. – Nega unday qilding?..

Huvayda indamay yerga qarab turaverdi.

– Ko'ylaging eski deb masxara qiladi-da, o'zi yasanib yuradi... – dedi yana Lola.

– Dangasaligingni bilardim-u o'rtoqlaringni mensi-masligingni bilmasdim. O'qishing yomon-ku, nimaga kekkayasan? Yana kelib-kelib Zubaydani xafa qilib-san. U sinfdagi a'luchi, odobli, yaxshi qiz-ku. Uni

hamma hurmat qiladi, hamma o'shanday bo'lsam deydi. Mana, ko'rdingmi, hozir unga ishing tushib turibdi. Qo'shning, yonma-yon turasizlar, undan bo'lak senga kim har kuni yordam qila oladi?

Huvayda boshini egib olib, o'qituvchining gapiga qulq solib turdi.

O'qituvchi uning oldiga bordi-da, yelkasiga qo'lini qo'yib, oldinga, – deb ishora qildi:

– Bor, o'rtog'ingdan kechirim so'ra! – dedi u, qat'iy qilib.

Huvayda uyalib hamon boshini ko'tarmay turgan Zubaydaning oldiga borgisi kelmas, unga sekin-sekin yaqinlashardi. Sinfdagilar indamay unga qarab turishdi.





NIHOLLAR NOLASI

Shaharda ko'kalamzorlashtirish oyligi bo'lib o'tgandi. Shu oylik davomida ko'chalar chekkasiga, ariqlarning bo'yiga, xiyobonlarga naq uch yuz mingga yaqin mevali, mevasiz, manzarali ko'chatlar o'tqazishdi. Haftalikda, gazetalarning yozishicha, maktab o'quvchilari, tuman kommunal xo'jaliklarining juda ilg'or, juda ham ilg'or bo'limgan xodimlari, mahallalarning tajribali va juda ham tajribali bo'limgan chollari faol ishtirok etishdi.

Bu ish juda tez, xuddi yov quvlab kelayotgandek shoshilinch o'tkazildi.

„Shodlik“ ko'chasining ikki yuzida qachonlardir suvlari o'ynoqlab ravon oqadigan ariqlar bo'lardi, lekin bu ariqlarning suvlari allaqachon, to'g'rirog'i bundan to'rt yillarcha oldin qurib qolgandi.

Ana shu suvi allaqachon qurib qolgan ariqlarning bo'yiga 22-maktab o'quvchilari ikki yuztacha chinor ekib ketishdi.

Juda xursand bo'lib, bir-birlariga hazil-mutoyiba so'zlar aytishib, qiqirlashib kulishib bir xil ko'chatlarni



juda to'g'ri, ostini sernam qilib, bir xillarini sal-pal qiyshaytirib, mayda tomirchalari yoniga quruq tuproq tortib ekib ketishdi.

Tavba qildim deb gapiRAY-ku, xuddi qo'ylar qo'ylar bilan yoki, aytaylik, chumchuqlar chumchuqlar bilan o'z tillarida gaplashganlaridek chinorlar ham chinorlar bilan gaplashishar ekan.

Haligi qiyqirishib ko'chat ekkan o'quvchilar biri ketmonini asfalt yo'lida daranglatib sudrab, biri belkurakni yelkasiga teskari qo'yib, yana bittasi bo'sh chelakni childirma qilib chalib ketishgach, chinorlar bir-birlari ga ma'noli qarab qolishdi.

– Xo'sh, hammalaring eson-omon joylashib oldilaringmi? – to'satdan gap boshlab dedi qaddi-qomati kelishgan novcha nihol.

– Chakki emas, – deb qo'ydi o'ng tomondagi pakana niholcha.

– Ekishayotganda mening bitta shoximni sindirib qo'yishdi, – deb zorlandi shoxi singan niholcha.

– Hechqisi yo'q, – dalda berdi qaddi-qomati kelishgan novcha nihol, – hammasi yaxshi bo'lib keta di, tomirlarimizni tuproq orasiga eson-omon yoyib olsak, gurkirab o'sa boshlaymiz, barglarimiz shabbodada o'ynab, qarsaklar chalamiz. O'tgan-ketganlar



salqinimizda o'tirib, bahra olishadi... Bizga hali rahmatlar yog'ilib ketadi.

Qaddi-qomati kelishgan novcha nihol boshqa sheriklaridan ham hol-ahvol so'rab, ko'nglini ko'taruvchi, dalda beruvchi so'zlar aytib, o'z ishiga mashg'ul bo'ldi... Tog' etaklaridagi qirlardan bu yerkarga yetib kelguncha mashinadan mashinaga o'taverib tanasining ko'p joylari zaxa yegan, bir necha kun oftobda qolib ketib, mayda, pat tomirlari quriy-quriy deb qolgan ekan. Novcha niholcha ana shu jarohatlarni tuzatishga, pat tomirlarini qaytadan jonlantirishga kirishdi. Lekin yon-atroflarida nam tuproq juda kam ekan, so'rishga harchand urinmasin, bir tomchi ham suv yig'a olmadi. Suv bo'lmasa jarohati ham bitmaydi, pat tomirlari ham tirilmaydi. O'q tomirida qishda g'amlab qo'ygan ozgina suv bor edi. Shu suvdan bir tomchisini olib jarohatini biroz davolagan bo'ldi. O'lay-o'lay deb qolgan pat tomirlar ham bu suvdan jonlanib, rangiga sarg'ish nur yugurdi, mayda qo'ichalari bilan tuproqqa yopishib, chaqaloq oyisining ko'ksini emgandek, nam tuproqlarni so'rg'ilay ketishdi...

Ertalab, quyosh chiqishi bilan ikki yuz niholcha birdan uyg'onib yengil-yengil chayqalishib, bir-birlari-



ga salom bergandek bo'lishdi, so'ngra tunlarning qanday o'tganligini ayta boshlashdi.


– Mening tomirlarim tuni bilan suv axtarib chiqishi, – dedi bitta nozikkina niholcha.

– Men bo'lsam tanam-u shoxlarim bilan shabnam so'rdim, – dedi boshqasi.

– Men yo'lda karaxt bo'lib qolgan ekanman, hali-yam o'zimga kelolmayapman, – deb qo'ydi uchin-chisi...

Qaddi-qomati kelishgan novcha niholcha bosh-qalariga qaraganda yoshi ulug'roq bo'lib, bobo chinorlardan ko'p rivoyatlar eshitgandi: yangi yerkarta ko'chib borilganda suv uchun, quyosh nurlari-yu, oziq-ovqatlar uchun omonsiz janglar ketarkan, bir xil niholchalar ojizlik qilib ana shu janglarda nobud bo'lib ketisharkan... Novcha niholcha bobokalonlari-dan eshitgan bu gaplarni o'ylab ketdi... Yo'g'-e, bu yerda unaqa bo'lmas, axir shundoqqina yonginalarda ariqlar bor-ku, bugun-erta suv haydab yuborishlari ajab emas. Undan keyin ko'chat ekib ketgan bolalar ham ja beparvo, beg'am emasdир. Ehtimol, suv to'la chelaklarni ko'tarib, bir-birlarini quvlashib, qiyqirishib kelib qolishar...

Sabr qilish kerak, sabr!





Nihollar sabr-u bardoshlari zo'r, uncha-muncha qiyinchilikka parvo qilmaydigan, quyosh taftiga, suvsizlikka o'rgatilgan edi. Hali-beri suv ham, oziq-ovqat ham kelmasligiga ko'zları yetganidan pat tomirlari bilan namhush tuproqqa yopishib tana-yu shoxchalari bilan shabnam so'rib, ikki-uch haftani bir amallab o'tkazishdi, bu o'rtada shoxchalaridan yashil bargchalar chiqarib, tanalaridagi ozgina namlik bilan ularga hayot baxsh eta boshlashdi. Ammo kunlar o'tgan sari bargchalar kattalashib, ko'proq suv, ko'proq oziq-ovqat so'ray boshlashdi. Niholchalarning tanasi pat tomirlariga ko'proq oziq-ovqat yuboringlar, deb buyruq bergen edi, tomirchalar birdan tilga kirib: „Oziq-ovqat atrofimizda mo'l, lekin ularni nima bilan yig'ib olamiz-u, nima bilan jo'natamiz? Oziq-ovqat jo'natadigan birdan bir vositamiz suv zarralari edi, axir ular yo'q-ku, bizga hadeb buyruq beravergandan ko'ra ozgina suv topib bersalaring bo'lmaydim!...“ deb har tomondan chug'urlashib qolishdi.

Bir kuni quyosh haddan tashqari qizdirib yubordi, o'zi to'kayotgan mo'l-ko'l harorat evaziga niholchalarning barg-u shoxchalaridagi eng so'nggi namlikni ham so'rib ola boshladi.

Niholchalar birdaniga:



- Suv!
- Suv!
- Suv!!! – deb baqirishga tushishdi.

Qaddi-qomati kelishgan novcha niholcha to'sat-dan qo'rqib ketdi: yo'q, o'zi uchun emas! Mayda niholchalarga, ukalariga achinib ketdi. Bobokalon-lari aytgan so'z uchun, oziq-ovqat uchun bo'ladijan janglarning eng og'ir pallasi boshlanganga o'xshay-di. Bunday paytlarda odamlar yordamga kelishmasa, nozik niholchalarining ko'pchiligi nobud bo'lib ketishi mumkin-ku, axir! Nahotki, nahotki shunday bo'lsa! Axir ular tog' bag'ridagi sersuv, bahavo adirlarda mazza qilib o'sishayotgan edi, o'z hollariga qo'yib berishganda, bu yerlarga majburan ko'chirib kelish-maganda, qanday soz bo'lardi-ya!

- Suv!
- Suv!
- Suv!!! – degan faryod hamma yoqni qoplab ket-gandek bo'ldi yana.

Novcha niholcha shoshib qoldi, nima qilishini, bir tomchi suvga zor bo'lib jon berayotgan nozik nihol-chalarga qanday yordam berishni bilmasdi u.

Ko'chadan shoshilib mashinalar o'tyapti, bir-birlari bilan gaplashib, allakimni yomonlab, allakimni maq-

tab odamlar ham o'tib turibdi... Nozik niholchalar-ning faryodiga bo'lsa hech kim parvo qilmaydi. Nim-jon bargchalari ochlik, suvsizlikdan birin-ketin so'lib boryapti.

- Suv!
- Suv!
- Suv!!! – deyishyapti ular.

Ertasiga ertalab niholchalarning ko'plari uyg'on-madi, tungi shabnamga yetolmay namozgar pallasi-dagi dimlikda birin-ketin nobud bo'lishgan ekan...

Qaddi-qomati kelishgan novcha niholcha bu judo-likdan dahshatga tushdi-yu, lekin o'zini yo'qotmadi. „Men endi boshqa niholchalar uchun ham yashashim kerak, bo'y cho'zib, har tomonga chiroyli shoxlar otib, yashil barglar chiqarishim, salqinimda o'tgan-ketgan-lar dam olib, biz, chinorlar sha'nimizga rahmatlar yog'dirishlari kerak...“ deb o'ylardi u. Pat tomirchali qurib, ikkita yon va ikkita o'q tomiri qolgan edi. Ana shularning tanasida hali bir-ikki tomchi SUV bor-ga o'xshaydi, ammo novcha niholcha shoshilinchda yashil bargchalarni ko'proq chiqarib yuborgan ekan, ertasiga ertalabdanoq ana shu yashil bargchalar ko'proq SUV berilishini so'rab, tanaga murojaat qila boshladi. Tana yuqorining iltimosini pastga yetkaz-gan edi, achchiqlanib turgan o'q tomir:



- Suv yo‘q! – deb jerkib berdi.
- Suv!
- Suv, biz o‘lyapmiz!
- Qovjirab boryapmiz!

Kun peshindan og‘ganda shoxchalar bilan tomirlar o‘rtasidagi aloqa butunlay uzilib qoldi, tomirlar endi o‘zlar o‘lmaslik uchun so‘nggi tomchi suvni o‘zlariga olib qolishgandi. Novcha niholchaning shoxlari so‘lib, barglari sarg‘aya boshladi, tanasi qurishib, o‘zini lohas sezsa boshladi-yu, vujudi qizib, po‘satlari tars-tars yorilib ketayotganini sezib qoldi.

“Yo‘q, – deya chayqalib ketdi novcha niholcha, – men o‘lmasligim kerak, men yashayman, yashayman!”

- Suv! – deb chinqirib yubordi oxirida...

Ko‘chadan shoshilib mashinalar o‘tib borardi. Odamlar ham o‘tyapti. Kimnidir maqtab, kimnidir yomonlab ketishyapti, bu ko‘chalar behad jazirama, ozgina bo‘lsa ham salqin joyi yo‘qligidan zorlanib borayotganlar ham bor.

Chollar, kampirlar o‘tyapti.

Yigitlar, qizlar o‘tyapti.

Bolalar, qizchalar o‘tyapti...

Novcha niholcha hamon ajal bilan olishib yotibdi, jang bobokalonlari aytishgandek beomon, shafqatsiz edi. Birin-ketin yashil bargchalari qovjirab taslim bo'lishdi, shoxchalaridagi hayot so'ndi. „Tanam tirik hali, – entikib dedi novcha niholcha, – men yashashim kerak, albatta yashayman...“ U kimdandir yordam kutgandek jovdirab atrofga qaray boshladi. Meni bu yerga ekib, ketmonini asfalta daranglatib sudrab ketgan bolalar kelib qolmasmikin, deb yana bir bora ko'cha boshiga ko'z tashladi, yomg'ir tomchilaridan umidvor bo'lib, bulut bo'lmasa ham ko'kka tikilib, uzoq qotib turdi... Keyin to'satdan sersuv adirlarda birga o'sgan ukalarining o'ligiga ko'zi tushib qoldi... Qiziq, hammalari tik turgancha jon berishibdi... O'tgan yili xuddi shu kecha-kunduzlarda hammalari tirik, yayrab-yashnab, barq urib o'sishayotgan edi... Endi bo'lsa... „Yo'q, men yashashim kerak...“

– Suv! Suv! Suv!

Qad-qomati kelishgan novcha niholcha asta-sekin o'zidan ketib, allaqanday sehrli xayolot nash'asi bilan mast bo'la boshladi, keyin o'sha kuni – haddan tashqari qizdirib yuborgan 19-iyun kuni kunduz soat otilarda jon berdi.

Tik turgancha qotib qoldi u.

CHUMOLINING HIKOYASI

Ishkom ostida timirskilanib yurib, daroyi uzumining urug'ini topib oldim. O'ziyam zil-zambil ekan, joyidan siljitib bo'lmasdi. Tavakkal qilib orqalab olsammikan, deb turgandim oldimdan „vish-sh“ etib bir badba-shara maxluq chiqib qoldi. Turqining sovuqligini-yu!...


Buvim kechagina yovuz ajdarho haqida ertak aytib bergen edi. Bu, hoynahoy, o'sha qonxo'r bo'lsa kerak. U bilan olishay desam, ertakdagi ajdarhoni o'ldirgan Qilichbotir, afsuski, men emasman. Qo'limda hamla qiladigan qirq gazli qilichim ham yo'q.

Darrov es-hushimni yig'ib oldim-u muloyimlik bilan unga ta'zim qildim.

– Assalomu alaykum, janob Ajdarho! – dedim.

Ajdarho avvaliga negadir o'ng'aysizlanib u yoq-bu yoqqa qarab qo'ydi, keyin birdan ko'krak kerib:

– Gar saloming bo'lmasa, ikki yamlab bir yutardim, – deya menga ko'z olaytirdi. Men egilib yana ta'zim qildim. Bir payt boshimni ko'tarib qarasam, hozirgina qarshimda gerdayib turgan Ajdarho yo'q.





U janobning yerdagi barg ostiga shosha-pisha kirib ketayotganini arang payqab qoldim. Gap nimadaligini anglab ulgurmasimdanoq, osmondan bir pahlavon uchib kelib yerga qo'ndi. Uning shamolidan uch-to'rt yumalab oyoqqa turdim.

Pahlavon patlarini hurpaytirib: „Semiz qurt qani?“ – deb so'radi mendan. Endigina og'iz juftlagan edim, birdan shamol turdi. Haligi barg shamolda pildiragancha uchib ketdi-da, semiz qurt nomli Ajdarho ochilib qoldi. Pahlavon birdan hamlaga hozirlangani ni ko'rib, uning Qilichbotir ekanini fahmladim. Buvimning ertaklaridagi rost bo'lsa, endi ular qirq kechayu qirq kunduz jang qilishadi, deb bezillab turgan edim, Qilichbotir bir cho'qishdayoq, Ajdarholi sulaytirib qo'ydi.

– Qoyil, Qilichbotir! – deb qichqirdim men zavqlanib.

– Og'zingga qarab gapir, – birdan menga do'q urdi pahlavon. – Nega meni boshqalar bilan adashtirasan? Men yetti iqlimga dong'i ketgan mashhur Chumchuqpolvon bo'laman-a!

U shunday deya janob ajdarholi tishlab olgani-cha yana osmon-u falakka ko'tarildi.

Hozir inimga, oilamga shoshilyapman. Men ularga ertak emas, Chumchuqpolvon haqida, menga Ajdarho bo'lib ko'ringan semiz qurt haqida ko'rganlarimni aytib beraman. Sezib turibmanki, ularning og'zi lang ochilib qoladi.

QURBAQANING HIKOYASI

Qur-r-vaq! Meni tanidingizmi? Ha, men o'sha boshi yapaloq, ko'zi shapaloq Qurbaqaman. Laqabim – vaq-va-qa to'ra.

Ko'rib turibsiz, vaqtim chog'. Bo'lmasam-chi! Hozirgina ikkita xira pashshani tutvolib shappa-shuppa yamlab yubordim. Endi hovuzga kalla tashlab, bir cho'milsammikin deb turibman. Men sizga aytsam, qorin to'ygandan keyin chalqancha suzishning ham gashti bor. Qancha suzsang, shuncha lanj bo'lasan. Ana undan keyin baqato'nga o'ravolib, biqqa-biqqa uqlash mumkin.

Lekin shunisi yomonki, uyqudan uyg'ongan paytingda bir kerishasan-u ko'zing jovdirab, ovqat axtarib qolasan.

O'tgan kuni uyqusirab turib bir sayoq chumakarni yutib yuboribman. Itpushshaga o'xshatibman-da.



Bir payt ichak-ichaklarimga igna sanchishini boshlab yubordi-yu, qurillab dodlaganimcha, paqir bo'yi sakrab, o'zimni yerga uraman deng. Chumakari chaqishini qo'yamadi, men dodlashimni. Yo'q, xayriyat, oxiri oshqozonimga ham bitta igna sanchidi-yu, shu bilan butunlay hazm bo'lib ketdi.

Baloyi azimdan qutulib olganimdan keyin, mundaq qarasam, sayroqi qushlarni tutib qafasga solishni yaxshi ko'radigan bir bola suqlanganicha menga qarab turibdi. Boya tinmay qurillayotgan paytimda, chamasi „shirali“ ovozim unga yoqib qolgan bo'lsa kerak. Bola tushmagur sayroqi qushlarga qo'shib meni ham bironta qafasga solib qo'ymasin dedim-u o'zimni ura hovuzga qarab otdim. Men sizga aytsam, qafasda yotib, tayyor ovqat yegandan ko'ra, erkin yurib, och qoringa chumakari yutgan ming marta afzal.

Bu hikoyani aytishdan maqsad, o'rtoqchilikning hurmati, seni ogohlantirib qo'ymoqchiman. Maslahatim shuki, uyqusirab turib ovqat yeyishga odatlana ko'rmagin. Buning oqibati juda yomon bo'larkan.



OLXO'RI VA O'RIK

Bahor keldi. Bog'larda gullar ochildi. Osmonda qushlar uchdi. Yerda chumolilar o'rmalashdi. Ariqlarda suvlar shildirab oqdi. Zumrad degan jamalak sochli, puchuqqina qizcha bog'ga kirdi.

U ko'm-ko'k maysalarni oralab, ko'priklardan o'tib, olxo'ri daraxtining tagiga keldi. Qo'llarini ko'targan edi, bo'yi yetmadi. Keyin u:

– Olxo'ri, olxo'ri! Dovuchchangdan ber! – dedi.

Olxo'ri bo'lsa:

– Tez kunlarda pishaman, –

Savatchangga tushaman. –

O'shanda kel! – dedi.

Zumrad o'rik daraxtining yoniga keldi. Qo'llarini uzatdi. Bo'yi yetmadi. Keyin u:

– O'rik, o'rik! Dovuchchangdan ber! – dedi.

O'rik bo'lsa:

– Tez kunlarda pishaman, –

Yerga tap-tap tushaman. –

O'shanda kel! – dedi.

Zumrad bir quchoq chuchmoma, lolaqizg'aldoqlarini terib, bog'dan qaytib chiqdi.



Bir kuni Zumrad yana ko'm-ko'k maysalarni oralab, ko'priklardan o'tib, bog'ga kirdi. Olxo'ri daraxting yoniga kelib qo'llarini uzatdi:

– Olxo'ri, olxo'ri! Olxo'ringdan ber!

Shoxlari egilib yotgan olxo'ri shunday dedi:

– Savatchangga sol, pishdim,

Shakar bo'lib yetishdim.

Qizlarga ulash, mayli,

Tishlaring qamashmaydi, – dedi.

Zumrad egilib turgan shoxlardagi sap-sariq olxo'rilarini savatchasiga soldi.

Undan keyin o'rikning yoniga keldi:

– O'rik, o'rik! O'rigingdan ber! – dedi.

– Savatchangga sol, pishdim,

Shakar bo'lib yetishdim.

Qizlarga ulash, mayli,

Tishlaring qamashmaydi, – dedi.

O'rik bir silkingan edi, yumshoq bo'lib pishgan o'riklar yerga tap-tap tushib, paq-paq yorila boshladи.

Zumrad o'riklarni terib, savatchasiga to'ldirdi. Yana ko'm-ko'k maysalarni oralab, ko'priklardan o'tib qaytib keldi.

Olxo'ri va o'riklarni yuvdi, o'rtoqlariga ham berdi.



BIRINCHI MEVA

Bahor kunlarining birida kimdir bobomni:

– Ho‘, bog‘bon buva, – deb chaqirib keldi. Bobom ikkalamiz ko‘chaga chiqdik. O‘rtog‘imning dasasi Xoldor amaki kichkina savatchada gilos ushlab turibdi:

- Marhamat! Yangilik! – dedi Xoldor amaki.
- E, ovora bo‘lib nima qilardingiz, inim?! – dedi bobom.

Men bo‘lsam goh gilosga, goh bobom bilan amakiga qarayman. Xoldor amaki bobom bilan hol-ahvol so‘rashib, gilosni menga berib ketdi.

Bir kuni ko‘chada o‘ynab yursam, yana bir kishi: „Bog‘bon bobongga berib qo‘y, yangilik“, deb bir qog‘oz xalta oq o‘rik berdi. Hayron bo‘lib bobomga olib kirdim.

– Bobojon, – dedim men yonlariga o‘tirib. – Bir narsa so‘rasam maylimi?

Bobom peshanamni silar ekanlar, kulib:

– Mayli, mayli, so‘rang, toychog‘im! – dedi.



– Siz bog'bon emassiz-ku, nega hamma sizni bog'bon, deydi.

Bobom bo'lsa uzun, qordek oppoq soqolini silab kuldi-da, mendan so'radi:

– Qishlog'imizning nomini bilasizmi, toychog'im?

– Albatta, bilaman – Gulbog'! – deb javob berdim men.

– Barakalla! – dedi bobom xursand bo'lib. – Nega Gulbog' deyilishini ham bilasizmi?

– Yo'q, bilmayman, – dedim.

Bobom javob bera boshladi:

– Biz bu yerga ko'chib kelganimizda qishlog'imiz bir cho'l edi. Bog'bon otam odamlarga bosh bo'lib, bog' yaratishga kirishdi. Qishloq nomini Gulbog' qo'yishdi. Otamdan o'rganib, men ham bog'bon bo'ldim. Olchazor, Olmazor, Nokzor, Jiydazor ko'chalarini bilasizmi, toychog'im?

– Ha, hammasini bilaman. Ammamning ko'chasi – Bodomzor, amakimniki – Olmazor, hu o'rtog'im-niki – Olchazor...

– Barakalla, toychog'm! Mana endi meni nima uchun bog'bon deyishlarini bilib olding. – dedi bobom.

Men ham bobomdek bog'bon bo'lishni niyat qildim. Men albatta niyatimga yetaman.



TISHI BORNING RIZQI BOR

Qadim zamonda dongdor bir boy bo'lgan ekan. Boyning kambag'al chol-kampir xizmatkori bo'lib, chol boyning o'tinini yorar, suv keltirar, ot, sigir-buzoqlarni, qo'y-qo'zilarni boqar; xizmatkor kampir bo'lsa boy xonadonida kir yuvar, hovli supurar, butun ro'zg'or ishlarini bajarar ekan.

Ularning yolg'iz Oysha otli qizlari bo'lib, u goh otasiga, goh onasiga ko'maklasharkan, ishga juda chaqqon ekan.

Ko'p o'tmay qiz bechoraning avval otasi, so'ngra onasi vafot etibdi. Endi ular bajaradigan ishlarning hammasi bitta Oyshaga qolibdi.

Shuning uchun u hali oshxonada ovqat pishirsa, hali og'ilxonaga yugurib, sigir-buzoqlariga qarar, tovuqlarga don sochar, hali boyning kir-chirlarini yuvarkan. Erta tongdan kechgacha tinmay ishlarkan.

Oysha har qancha yelib yugursa ham, boyning xotini, besh bolasi uni turtgani-turtgan ekan.

Xotini: „Idish-tovoqlarni yaxshi yuvmabsan“, deb qarg'asa, o'g'il-qizlari: „Nega suv yo'q, nega suv keltirib qo'ymaysan?“ deb baqirarkan.



Oysha bir ishni bitirishga ulgurmasdan, boy: „Mollarga yaxshi qaramayapsan, ma'rashgani-ma'rashgan, sening ta'ziringni berib qo'ymasam, bo'lmaydiganga o'xshaydi“, deb koyir ekan.

Ammo Oysha hammasiga chidar ekan. Tilsiz do'stlarini silab-siypab, dardini ularga aytarkan va ularni erkalatib: „Shunaqa, echkijon, qo'yxonlarim! Iye, shirin buzoqchalarim, suvingiz tugabdi, o'tingiz oz qolibdi“, deb qo'yarkan.

Oysha darhol suv berarkan, o't solarkan, so'ng tovuqlardan xabar olarkan.

– Mening tovuq-xo'rozlarim, besaranjom xush ovozlarim! – der ekan-da, don socharkan, jo'jalarni erkalar ekan. Ammo boyvachchalar hayvonlar ovozidan nolir ekanlar: „Hoy, Oysha, yashshamagur! Hayda tovuqlaringni! Sigir-buzoqlar, qo'y-qo'zilarning ovozini o'chir“, deb koyishar ekan. Oysha bo'lsa:

– Hoy echkijon, qo'zijonlarim, tinchimas tovuq-xo'rozlarim! Qichqirmanglar, uyat bo'ladi! – der ekan.

Bir kuni buni boyning o'g'il-qizlari eshitib qolib, shovqin solishibdi:

– Oysha, sen tovuq-xo'roزلار، sigir-buzoq، qo'y-echkilار bilan gaplashyapsan، shu to'g'rimi?



- To‘g‘ri, boyvachchalar! – debdi Oysha.
- Ular gapga tushunmaydi-ku! Esi past, nodon!
- Biladi, tushunadi, boyvachchalar, – debdi Oysha.
- Sen tentak qiz ekansan, jinni bo‘lib qolibsan.

Seni otamizga aytib, uydan haydash kerak, – deyishibdi boyning o‘g‘il-qizlari uni masxaralab.

O‘g‘il-qizlar: „Jinni qizni haydang!“ deb turib olishgach, boy rozi bo‘libdi.

– Mayli, men ketaman. Men harom tuz ichmadim, boy ota! Tuzingizga rozi bo‘lib, haqimni bering. Mayli, ket desangiz ketaveraman, – debdi Oysha kunlardan bir kuni.

– Ketaver! – debdi boy. – Yegan, ichganing bilan ora ochiq! Menda hech qanday haqing yo‘q!

– Mayli, boy ota. Otam rahmatlik: „Odam o‘lmas, rizqi kamaymas“, – degan edilar. Ochimdan o‘lmasman. Hovlingizda shuncha yil tinmay ishladim, lekin xizmat haqimni bermadingiz. Endi ming bor pushaymon bo‘lasiz! O‘g‘il-qizlaringiz hali ko‘p afsuslanadi, – deb Oysha faqat hayvonlar-u parrandalar bilan xayrlashibdi-da, boyning hovlisidan chiqib ketibdi. Tovuqlar qaqlabdi, xo‘rozlar qichqiribdi. Bir zumda hovli to‘s-to‘polon bo‘lib ketibdi. Boy dovdirab qolibdi.



U har yoqqa alang-jalang bo'lib qarabdi. Hayvonlarga o't, parrandalarga don tashlabdi. Sigir-buzoqlar o'tga qaramay, arqonni uzib, boyning xotini va o'g'il-qizlarini suzgani yuguribdi. Ular jon holatda uyga qochib kirib qutulishibdi.

– Oysha yer yutkur qani? Borib tez chaqirib keling uni, – debdi boyning xotini bolalariga.

– Men sen esi pastlarning so'ziga kirib, chakki ish qilibman. Endi Oysha yo'q, – debdi boy baqirib.

Bu orada echkilar ko'chaga qarab chopibdi. Unga sigir-buzoqlar, qo'y-qo'zilar, xo'roz-u tovuqlar ergashibdi. Hovlini to'ldirgan shovqin-suron tezda bosilibdi. Boy-u boyvachchalar hayron bo'lismish, biring-ketin hovliga chiqishibdi. Hovlida biron jonivor qolmabdi. Boy bu voqeadan yoqasini ushlab qolibdi. U yoqqa yuguribdi, bu yoqqa yuguribdi, ko'chaga chiqibdi, hayvonlarni topolmabdi.

Sigir-buzoqlar, qo'y-u echkilar, tovuq-xo'rozlar esa Oyshani qidirib topishibdi va ular uzoq-uzoqlarga ketib qolishibdi.



KEKSA KULOL VA SHOGIRD

Yoshi oltmishlardan oshgan mo'ysafid odam kulolning uyiga bir kuni o'g'lini boshlab kelib:

– Taqsir, peshanamda shu bitta-yu bitta o'g'il-cham bor. Ko'zim ochiqligida biror hunarning boshini tutsin deb, sizni qora tortib keldim, – debdi.

Kulol sopol tovoqlarning chetlarini o'sma rangiga bo'yab turib:


– Mayli, eski oshnamiz iltimos qiladilar-u biz yo'q deymizmi, – deb iltifot ko'rsatibdi.

Shogird kulolnikida soz tuproq qazibdi, suv tashibdi, loy qilibdi, o'choqqa o't qalabdi, xullas, ustozning aytganlarini bajo keltirib yuribdi.

Ular yasagan idish-tovoqlar xaridorlarga kundan kunga manzur bo'lib, tez sotila boshlabdi.

Oradan bir necha qish-u yoz o'tgandan keyin shogird:

– Kulolchilikning miridan-sirigacha bilib oldim, endi yugurdak bo'lib yuramanmi, – deb o'ylabdi-da, ustozidan javob so'rabdi.





Kulol bo'lsa:

– O'g'lim, hunar injiq narsa, isabr-toqat qilib, yana biror yil qarashib-netib turganing ma'qul edi, – debdi.

Shogirdning ichi pishib ketib, qo'yarda-qo'y may fotihasini olibdi. Katta bozorga do'kon ochgan kungi xaridorlar uning piyola, choynak, ko'zachalarini talashib olib ketishibdi.

Ustozi bo'lsa:

– Mayli, oxiri xayrli bo'lsin! – deb o'z yumushini davom ettiraveribdi. Oradan uch-to'rt kun o'tar-o'tmas shogirdning ishi yurishmay qolibdi, uning mollarini birov xarid qilmay qo'yibdi. Chunki u yasagan lagan, tovoqlarning sirlari xiralashib, ustiga ustak ko'chib ketayotgan emish.

Ustozning bozori avvalgisidan ham qizib, tushlik qilishga ham qo'li tegmay qolibdi. Oxiri shogird dastmoyasidan ajrab ko'p aziyatlar chekibdi. Nihoyat kulolnikiga ming pushaymon bilan qaytib kelibdi.


– Aytmovdimmi, shoshmagin deb!

Kulol uning joniga tag'in oro kiribdi.

Oydan oy, kundan kun o'tibdi. Sadoqatli shogirdiga kulol:



- Bolam, alahsimay, razm solib tur! – debdi-da, qurigan idishlarini bir-bir „puf”lab, so'ngra sir beribdi. Shunda lagan-u tovoqlarning chiroyi juda ham ochilib, yarqirab ketibdi.
- Shogird endi uning hunarini batafsil egallab olishga astoydil bel bog'labdi.





QUYONCHA

Dalada, qo'sh boshida besh-oltita bochka yotar edi. Bu bochkalardagi yoqilg'ilarga Mirtoji bobo poyloqchilik qilar edi. Ish qizigan mahal. Bir hafta bo'ldi, u tushki ovqat paytida uyiga borolmaydi; traktorlaraga chelakda yog', suv tashib beradi. Shundan beri Bektosh bilan Hoshim mактабдан qaytgandan so'ng bobolariga ovqat olib keladigan bo'lib qolishdi.

Mana, bugun ham ular ovqat olib kelishyapti. Hamma yoqda bahor; yerda ham, ko'kda ham bahor. Butun jon-jonivorlar yer betiga о'rmalagan payt: huv ana, osmonda turnalar arg'imchog'i tirov-tirov qilib uchib ketyapti; yerda esa traktorlar gurullab atrofni larzaga solyapti. Endigina traktor so'qasi ag'darib o'tgan qumoq-qumoq yer bo'rsillab-bo'rsillab yengilgina bug' chiqaradi. Hamma yoqda ko'klam hidi, nafasi... Hamma joyda ko'klam shodiyonasi, shovqini...

Bolalar atrofni to'yib-to'yib tomosha qilishar, so'qa ketidan ipakdek mayin tuproqqa yopirilgan zag'cha galalariga kesak otib uchirishar edi. Zag'chalar





bo'lsa qag'-qag' qilishib ularning tepasida uchib ay-lanishardi. Bektosh shunda ham zag'chalarni tinch qo'ymedi. U endi osmonga kesak otdi. Kesak shud-gor chekkasidagi qalin olabo'taga kelib tushgan edi, olabo'ta ichidan bir kichkina quyoncha sakrab chiq-di. Bolalar qiyqirishib o'zlarini quyonchaga otishdi. Bechora quyoncha nima qilarini bilmay olabo'tadan bir-ikki aylandi. Keyin shoshganidan haydalgan yer-ga qarab qochdi. Bektosh uch-to'rt hatlashidayoq unga yetib, tutib oldi. Orqasidan Hoshim halloslab yetib kelganida Bektosh quyonchani bag'riga bosdi.

— Vuy, kichkinaligini, — dedi Hoshim havasi ke-lib, — bir ko'rib beray?

— Qochirib yuborasan.

Ular tutgan o'ljalaridan xursand bo'lib yo'lga tu-shishdi.

Bektosh Hoshimdan kattaroq, bo'yi ham cho'ziqroq: u chuqur haydalgan so'qa izidan kelayotsa ham bo'yi Hoshim bilan baravar edi. U xuddi birov tortib olayotganday, quyonchani mahkam bag'riga bosib olgan. Hoshim bo'lsa qo'lida ko'tarib olgan mis to-voqchani goh u yoniga, goh bu yoniga olardi. Ik-kalasi ham atrofdagi bo'layotgan narsalarni unutish-gan; traktorlarning shovqini ham, zag'chalarning

qag'-qag'lashi ham qulqlariga kirmasdi. Fikri yodlari ham, ko'zlar ham quyonchada.

Ular xuddi shu ahvolda qo'sh boshiga kelishdi. Kelishlari bilan Bektosh har kungidek olib kelgan ovqatini emas, tutib olgan quyonchasini ko'rsatib, bobosiga maqtandi:

– Mana, bobo, ko'ring.

Bobosi asta quyonchani qo'liga oldi. U hali yosh, yunglari momiqdek, biroq oriq; bechora qo'rqqani-dan dir-dir titrar, yuragi duk-duk urar edi. Chol uni asta-asta siladi:

– Voy bechora-yey, yaqinda tug'ilgan ekan. Uyasi traktor buzibdi-da?.. – dedi u salmoqlanib. Keyin nabiralariga qaradi. – Bechorani onasi izlab yurgandir.

Bobosining so'zlaridan hayron qolgan Hoshim bilan Bektosh bir-birlariga qarashdi. Hazil qilayotgandir, deb Bektosh bobosiga qaragan edi, jiddiy ko'rindi. Keyin Bektosh o'ylanib qoldi: „Rostdan ham uyi buzilgan bo'lsa-ya. Bordi-yu, bobom aytgandek, onasi izlab yurgan bo'lsa-chi!“ Bektosh biroz o'ylanib turdi-da, asta qo'lini cho'zib, bobosidan quyonchani olib orqasiga burildi.



Unga Hoshim ham ergashdi.

– Qayoqqa? – dedi Mirtoji bobo.

– O'mniga olib borib qo'yamiz.

– Ha, bolam, olib borib qo'yinglar. Hali u yosh, hech narsani bilmaydi. Sutdan chiqmagan ko'rindi.

Bolalar yo'lga tushgandagina Mirtoji bobo ishtaha bilan tovoqning og'zini ochdi...

YORILGAN MILTIQ

Kun tushga yaqinlashib qolganda bulutlarning bir chekkasi yirtilib, oftob mo'raladi. Qamishlar uchiga qizillik yugurib, ertalab badanlarni junjitib esayotgan shamolga muloyimlik indi. Ovchilar har kungi-day, soy bo'yidagi pastqam yalanglikka to'planishib, to'rvalaridagi non bormi, yaxna o'rdak go'shti bormi, termosdagi choy bormi... ishqilib, hamma narsalarini o'rtaga qo'yishdi. Yana gap qizidi:

– Bitta o'q bilan uchtasini urdim, qoyilmisani? – derdi bir ovchi. Unga Adham degan bolaning dadasi gap bermaydi:

– Ko'k porox kuchli bo'ladimi, deb qoldim?! Bitta o'rdakni otgan edim, zarb bilan osmonda besh metr-

cha joyga uchib borib boshqa bir o'rdakka urilsa bo'ladimi? Uni ham yiqitib tushirdi...

- Qo'y-e!..
- Ha, ishonavering. Tag'in nuqul otgan o'qim o'r-dakning boshiga borib tegadi deng...
- Yo'g'-e... – deydi amakim uning gapidan hayrat-da qolgan bo'lib.
- Mana ishonmasangiz... – deb Adhamning dasi otgan o'rdaklarini ko'rsata boshlaydi.
- Qani, qanotiga tegibdi-ku?
- E, buni men mo'ljalga olmaganman, o'qimga o'zi duch kelib qolgan!
- Undoq bo'lsa miltig'ing sehrli ekanda-a? – amakim battar uni qayraydi miyig'ida kulib. At-rofdagilar qotib-qotib kulishadi. Keyin Adhamning dasasi amakimning ermak qilayotganini sezib qolib, gapini to'g'rilaydi go'yo:
- Yo'q-yo'q, gap poroxda!..
- Shu mahal yaqin o'tadan miltiqning „qars!“ etgan bo'g'iq tovushi, so'ng qandaydir bir bolaning ingra-gan yig'i ovozi eshitilib qoldi. Suhbat bo'linib, hamma joy-joyidan sakrab turib ketdi. Bunday qarasam, Adham yo'q, qo'rqib ketdim.



– Adham!.. – deb yuborganimni bilmay qoldim. Ovchilar bilan ketma-ket chopib borsam, Adham soy bo'yida quv oqarib, yig'lab turibdi. Oyog'i tagida qo'shog'iz miltiq yorilib yotibdi.

– Nima bo'ldi o'zi?!

Adhamning so'zlashga majoli kelmas, bir jihatdan dadasidan qo'rqib turardi. Nimagaligi keyin ma'lum bo'ldi: ovchilar o'zlarini bilan ovora bo'lib, lof urib o'tirganlarida Adhamvoy qamish orqasiga o'tib suvda yuza suzib yurgan sazan baliqni ko'rib qolibdi. Keyin miltiq bilan otib, tutib olish fikri tug'ilibdi unda. Dadasi gap bilan ovora bo'lib o'tirganida asta keilib, bildirmay miltig'ini olib qayta o'sha joyga boribdi. Borsa, baliq suv tagida o'tlar orasidan ko'rinish turganmish. Adham baliqni aniqroq mo'ljalga olish uchun miltiq og'zining yarmini suvga tiqib, tepkini bosib qolibdi. Miltiqning qo'ndog'i kelib zarb bilan yelkasiga urilibdi... Bundoq ko'zini ochib qarasa, miltiq ikki bo'linib ketibdi. Qo'shog'izning esa otilgan tomoni yorilib nariroqda tutuni chiqib yotganmish.

Adhamga dadasi indamadi. Chamasi o'g'lining sog' qolganidan xursand edi. Biroz vaqt o'tgach, u o'g'liga:

– Miltiqni suvga tiqib ham otadimi, tentak? Nafas chiqadigan joyni bekitib qo'ysa, bu miltiq ekan-ku, odam ham yoriladi. Og'zi suv bilan bekilib qolgan-dan keyin... Ko'k poroxning kuchi qoladimi?! – dedi nasihatomuz.

Ovchilikka tekkan kasal ekan, u shu yerda ham o'zining ko'k poroxini ko'taribroq gapirar edi. Adhamning dadasi aytayotgan gaplardan odamlar miyig'ida kulishib, birin-ketin orqalariga qaytishdi. Kech kirib qolgan edi.

Shu kuni ovchilar bir dunyo o'lja bilan, men bo'l-sam bir umrga yetgulik taassurot bilan qishloqqa qaytib keldik...



TOMCHI HAQIDA ERTAK

Qishloq chekkasida, baland tepalik ustida bir tup O'rik bor ekan. U har yili odamlarga mo'l-ko'l meva berarkan. Ammo atrofida boshqa daraxtlar bo'limgani uchun juda zerikar ekan. Bir kuni ertalab O'rik uyg'onsa, yaprog'ida bir narsa yaraq-yaraq qilib turgan mish.

- Sen qanaqa qushsan? – debdi O'rik hayron bo'lib.
- Men qush emasman. Men – Tomchiman, – debdi boyagi yaraqlab turgan narsa.
- Kel, o'rtoq bo'lamiz, – debdi O'rik.
- Bo'pti.
- Ammo ketib qolmaysan, – debdi O'rik. – Bo'lmasa qushlardan ham o'rtog'im ko'p-u, hammasi kuz kelishi bilan qochib ketadi.
- Mayli, – debdi Tomchi. – Men eng qiyin paytda doim sening yoningda bo'laman.
- O'rik juda suyunib ketibdi. Ikki o'rtoq kun bo'yimaza qilib o'ynashibdi. Lekin O'rikning quvonchi

uzoqqa bormabdi. Ertasiga ertalab uyg'onsa, Tomchi yo'q emish.

„Tomchi meni aldabdi“, deb o'ylabdi O'rik xafa bo'lib, endi shundoq deb turgan ekan, birov uni chaqiribdi.

– O'rikjon! Hoy O'rikjon!

O'rik quloq solsa, tovush osmondan kelayotganmish. Osmonga qarasa, do'mboqqina, oppoq bulut suzib ketayotganmish.

– Meni kim chaqiryapti? – debdi O'rik shoxlarini silkitib.

– Men sening do'stingman! – debdi bulut borgan sayin yerga pastlab. – Men – Tomchiman.

O'rik hayron bo'libdi.

– Qandoq qilib osmonga chiqib olding?

– Meni oftob bobo bulutga chiqarib qo'ydi.

– Meniyam opket, – debdi O'rik havasi kelib.

– Yo'q, sen odamlarga meva berishing kerak.

Qo'rqlama, men ham yaqinda qaytib kelaman.

Tomchi shunday debdi-da, bulutga minib olis olislarga ketib qolibdi. O'rik yana zerika boshlabdi. „O'rtog'im endi kelmaydi, – deb o'ylabdi xafa bo'lib. – Osmonga chiqib, meni unutib yuboradi“.



Kunlar borgan sayin isib, o'rikning rosayam suv ichgisi kelibdi. Chanqaganidan yaproqlari shalpayib qolibdi. Suv ichay desa, yaqin orada bittayam ariq yo'q emish. Oxiri u shundoq chanqabdiki, hushidan ketib qolibdi.

Bir mahal birov uning yaproqlarini silagandek bo'libdi.

O'rik ko'zini ochib qarasa, yaproq ustida Tomchi turganmish.

– Men senga yordam bergani keldim, – debdi Tomchi. U shunaqa ko'p o'rtoqlarini boshlab kelgan ekanki, O'rikning chanqog'i birpasda bosilib, yayrab-yashnab ketibdi. Ikkala do'st rosa o'ynabdilar.

Kundan kun, oydan oy o'tib, kuz kelibdi. O'rikning yaproqlari to'kilib, yalang'och bo'lib qolibdi. Bu ham kamlik qilgandek, birdan izg'irin shamol esibdi. O'rikning a'zoyi badani muzlay boshlabdi.

– Tomchi bo'lganida yordam berardi, – deb o'ylabdi O'rik afsuslanib. Shundoq deyishi bilan osmonda bir vaqtlar Tomchini ko'tarib yurgan bulutlar paydo bo'libdi. Bulutlar quyuqlashaveribdi, quyuqlashaveribdi, oxiri qor yog'ib yuboribdi. Qor uning shoxlarini ko'rpadek o'rab olibdi.

- Qalay, isib qoldingmi, O'rikjon?
 - O'rik Tomchining tovushini darrov tanibdi. Ammo o'zini ko'rmabdi.
 - Qayerdasan, Tomchi? – debdi shoxlarini silkitib.
 - Qorning ichidaman, – debdi Tomchi kulib. – Qarasam sovqotib qolibsan. Qorni boshlab keldim.
 - Endi ketib qolmaysan-a? – debdi O'rik yalinib.
 - Yo'q, bahorgacha sening yoningda qolaman.
- O'shandan beri O'rik odamlarga ko'p mevalar beribdi. Tomchi ko'p ellarni kezibdi. Ammo qayerda bo'lmasin, qiyin va zarur paytda do'sti – O'rikning yoniga yetib kelarkan.





YAXSHILIK

Fazliddin o'rtog'i Nabi bilan ko'chada o'ynab yurardi. Shu payt uzoqdan qo'shnilar Normamat boboning kelayotganini ko'rib qoldi. Cholning qo'lida tugunchasi ham bor edi. Fazliddin hovliqib, o'rtog'iga kerildi:

– Hozir-chi men borib Normamat bobomlarga yordam beraman. Bilasanmi... men doim qariyalarga yordam beraman. Meni Normamat boba juda yaxshi ko'radilar. Ishonmasang men bilan yurgin, o'zing ko'rasan.

Bolalarga yaqinlashib qolgan Normamat boba Fazliddinning so'zlarini eshitdi chog'i, miyig'ida jilmayib qo'ydi. Fazliddin boboning oldiga yugurib bordi va uning qo'lidan tugunchani oldi.

– Bobo, keling yordamlashib yuboray, sizga doim yordam beraman-a? – so'radi Fazliddin Nabi eshit-sin uchun jo'rttaga baqirib.

– Ha, har doim yordam berasan, – boshini liqil-latib tasdiqladi Normamat boba.

Fazliddin oldinda, Normamat bobo orqada yo'liga tushdilar.

Uyiga yetganidan keyin Normamat bobo Fazlidinning qo'lidan tugunchani oldi. Lekin har galgidek „Barakalla, bo'talog'im, odobli bola ekansan“, deb maqtamadi. Faqat quruqqina qilib: „Rahmat“, dedi va engashib, Fazliddinning qulog'iga allanarsalar deb pichirladi. Keyin kulimsiragancha uyiga kirib ketdi.

Fazliddin noqulay ahvolga tushib qoldi. Labini tishlab, chap oyog'i bilan yer chizdi. Uning yoniga yugurib o'rtog'i keldi.

– Ha, nega nafasing ichingga tushib ketdi? – so'radi Nabi. – Normamat bobo nima dedilar?

Fazliddin boshini ko'tarolmasdi.

– Nega indamaysan?

– Yaxshilik qil, lekin ketidan maqtanib, uni yuvib yuborma, dedilar Normat bobo, – zo'rg'a javob berdi Fazliddin.

TO'LAB BER

Marhamat opa Salimani yuvib-tarab, yangi kiyimlarini kiygizdi.

– Bugun seni mehmonga olib boraman, ularning sen tengi Shahlo degan qizi bor, birga o'ynaysizlar, – dedi.

Salima o'zida yo'q xursand bo'lib ketdi. Qutichadan o'zi tikkan kashtani oldi.

– Shahloga beraman, – dedi oyisiga qarab.

Ona-bola otlanib, yo'lga tushishdi.

Uy egalari mehmonlarni juda yaxshi kutib oldilar. Salima Shahloga sovg'asini berdi. Shundan keyin ikkala qizaloq birpasda inoq bo'lib ketishdi.

Kattalar o'zlari bilan o'zlari ovora edilar. Salima Shahlo bilan hovliga chiqib, oldin quvlashmachoq o'ynashdi. Keyin bir-birlariga yod biladigan she'rlarni aytib berishdi.

– Kel, bog'cha-bog'cha o'ynaymiz, – deb qoldi Shahlo.

– Bo'pti, – dedi Salima. – Qo'g'irchoqni qayerdan olamiz?

Shahlo uydan katta qo'g'irchoq olib chiqdi.

– Men murabbiya bo'laman, – dedi Shahlo.



– Men esa doktor bo'laman, – dedi Salima.

Dugonalar qo'g'irchoqni cho'miltirishdi, kiyintirishdi.

Ovqatdan keyin yotqizib uxlatishdi. Keyin davra qurib o'yinga tushishdi. Salima qo'g'irchoqni bag'riga bosib aylanayotgan edi, qoqilib yiqilib tushdi, tagida qolgan qo'g'irchoq pachoq-pachoq bo'lib ketdi.

Shahlo qo'g'irchoqni ko'rди-yu, dodlab yig'lab yubordi.

– To'lab ber hozir, to'lab ber qo'g'irchog'imni, – deb yerdepsinib baqirdi u.

Tizzalari shilinib ketgan Salima og'rinqi ham unutib, dovdirab qoldi. Shahlo hamon tinmasdan uvvos ko'tarardi. Salima nima qilishini bilmay, cho'ntaklarini kovladi, o'yinchoq soati bor ekan. Shahloga uzatdi.

– Qo'g'irchoqning o'rniga shuni ola qol.

– Kerak emas. – Shahlo soatni uloqtirib tashladidi. – Qo'g'irchog'imni to'lab ber! To'lab ber, deyapman senga! – U shang'llab hovlini boshiga ko'tardi.

Shovqinga onalari yugurib chiqishdi. Voqeani eshitib, Shahloni ovutmoqchi bo'lishdi. Shahlo esa battar avjga chiqdi, yerga dumalab yig'ladi.

„Konfet beramiz, bundan yaxshiroq boshqa qo'g'irchoq olib beramiz“, – deyishsa ham ko'nmadid. Salima boshini ko'tarolmay, yerga tikilgancha qoldi.



Shahlo rosa dodladi. Oxiri oyisi bir amallab tin-chitdi.

Shundan keyin Salima bilan oyisi mehmonda yana birpas o'tirishdi. Salimani qancha zo'rlashsa ham, hech narsa yeya olmadi.

„Ketamiz oyijon“, – deb onasiga surkalaverdi.

Keyin Salima va oyisi mezbonlar bilan xayrlashib, uylariga qaytishdi. Yo'lda ketayotganlarida Salima, ikkala ko'zida jiqqa yosh, oyisiga termulib:

– Oyijon, endi hech mehmonga bormayman, – dedi.

SHAKAR QIZ

Mashhurani hamma tanish-bilishlari „shakar qiz“ deb maqtashardi. Nimaga desangiz, Mashhura ham-maga shirin gapirishga, hammaga yoqishga harakat qildi. Ayniqsa, „shakar qiz ekan-u“ deb maqtov eshitganda gul-gul ochilib ketardi.

Qor yog'gan kuni Mashhura kichkina ukasini chanaga o'tqazib, ko'chaga olib chiqdi. Chanasini sudrab to'rt qavatli uyning atrofini bir-ikki aylandi. U qo'ni-qo'shnilarini ko'rganda muloyim jilmayib salom-lashar, hol-ahvol so'rardi.



Xushfe'l qizchadan mamnun bo'lgan qo'shnilar:

– Qanday odobli qizcha-ya Mashhura! – deb havaslari kelardi. Uyning orqasida uch-to'rtta bola qorbobo yasayotgan ekan. Mashhurani ko'rib Qo'chqor mazax aralash qichqirdi:

– I-yaa, kelsinlar, murabbo qiz!

Mashhura hazilni tushunmadi, Qo'chqor meni maqtayapti, deb suyundi.

– Voy bo', judayam chiroyli qorbobo yasabsizlar-ku! – dedi.

Shu payt bolalarning yonidan nabirasi Shoistani yetaklab Xosiyat xola o'tib qoldi, bir qo'lida g'ilofga joylangan skripka.

U har yakshanba kuni nabirasini musiqa to'gargiga olib borardi.

Xosiyat xolaga hammadan oldin Mashhura salom berdi.

– Barakalla, dono qizim. Umring uzoq bo'lsin, – kampir shunday deb yo'lida davom etdi.

U nabirasi bilan tuyulishga yetganda mahallada sho'xligi va o'yinqaroqligi bilan nom chiqargan Qo'chqor bir siqim qor olib dumaloqladi-da, qulochkashlab ularning orqasidan otdi. Qor g'ilofga tegdi.

Mashhuradan boshqa hamma bolalar o'zlarini daraxt panasiga oldilar.

– Ha, shumtakalar! – beg'araz po'pisa qildi kampir, – g'ichchakni sindirib qo'ysalaring nima bo'lardi! Shoshmay turlaring, hali qaytay, qor otganni topib, boplab adabini berib qo'yaman!

Kampir tuyulishga burilib ko'zdan g'oyib bo'lgach, bolalar o'z pistirmalaridan chiqishdi.

Mashhura chanasini sudrab uyiga kirib ketdi. Peshinga yaqin u yana ko'chaga chiqdi. Pista chaqib hovlida u yoqdan bu yoqqa aylanib yurdi, aftidan kimnidir kutardi.

Nihoyat ko'chaning boshida nabirasini yetaklab Xosiyat xola ko'rindi. Mashhura ularning qarshisiga peshvoz chiqdi. Jilmayib kampirning pinjiga suqildi.

– Buvijon, boyta xafa bo'lma dingizmi? – Uning ovozi shirali va hushomadgo'yna chiqdi. – Nima qilay, qor otma deb to'xtatib qolay desam kuchim yetmadi. Bilasiz-ku, Qo'chqor mahallada eng to'polonchi, sho'x bola.

– Voy, mayli, qo'yaver, – dedi Xosiyat xola, – bolaligimizda biz ham shunaqa sho'x bo'lganmiz. Bolaning sho'xi yaxshi, ichidagi tashida bo'ladi. Ipak-oyim-pismiqlardan asrasin.

– Men ham qorbo'ron o'ynashni yaxshi ko'raman, – gapga aralashdi Shoista.

Mashhura nima deyishni bilmay lol bo'lib qoldi. Chunki Mashhura kutganidek Xosiyat xola unga rahmatlar aytmadı, uni maqtamadi.

Xosiyat xola „shakar qiz“ga g'alati bir qarab qo'ydi-yu:

– Yura qol, do'mbog'im, – deb nabirasini yetaklaganicha yo'lida davom etdi.

Mashhura hamon o'ziga kelolmay, ularning ortidan qarab qoldi.

QAND BERSANGIZ...

Nosirjon shirinlikni yaxshi ko'radi. Kattalardan bিortasi ish buyursa: „Qand bersangiz qilaman“, deb javob beradi. Qand bermasangiz qilmaydi. Bir kuni to'satdan Nosirjonning buvisi kasal bo'lib qoldi. Nosirjonning dadasi bilan oyisi ishda edi. Qo'shnilar darrov shifokor chaqirib kelishdi.

Doktor Nosirjonning buvisiga har xil dorilar yozib berdi:

– Qoningiz kamayib qolibdi. Ko'proq shirinlik yeng, – deb tayinlab ketdi. Kechga yaqin karavotda



yotgan buvisining qorni ochdi. U karavotning tagidan termosni olib piyolaga choy quydi. Keyin rasmlı kitob o'qib o'tirgan nabirasiga qaradi:

- Nosirjon, qanddonni olib kelib bergen, choy ichmoqchiman, – dedi.
- Qand bersangiz olib kelib beraman, – dedi Nosirjon odati bo'yicha.
- Mayli bolam, beraman, – dedi buvisi.

Nosirjon qanddonni buvisiga olib borib berdi. Buvisi qanddonni ochsa, ichida bittagina qand qolgan ekan, olib Nosirjonga berdi. Nosirjon qandni og'ziga soldi-da, parvoysi falak o'tirib yana rasmlı kitobchasi varaqlay boshladi...

ENDI HECH KIM ZERIKMAYDI

Marhamatning o'yinchoqlari juda ko'p. Tulkivoy bilan Bo'rivoy, Xo'rozcha va Quyoncha, Bo'taloq bilan Toychoq, Arslon va Ayiqpolvon.

Marhamat o'yinchoqlarini bir uy qilib yasatib qo'ygan.

Shanbada Marhamatning tug'ilgan kuni bo'ldi. Uyiga bog'chasidan, mahallasidan o'rtoqlari kelishi-di. Katta mehmonxona bolalarga to'ldi. Rosa maza

bo'ldi. Marhamatning onasi har xil shirinliklar pishir-gan ekan, hammani mehmon qildi.

Undan keyin o'yin-kulgi boshlandi. Marhamatning bog'cha o'rtog'i Sayyora qo'shiqqa juda usta edi, tortinchoqlik qilib o'tirmasdan rosa ashulani oldi. Bolalar unga qo'shilishib aytishdi. O'yinni ayniqsa Po'latjon bopladi.

Shundan keyin Marhamat o'rtoqlarini o'z xonasiga olib kirdi. Bolalar o'yinchoqlarni ko'rib, qarsak chalib yuborishdi.

Sayyora:

– Vuy, o'yinchoqlarning ko'pligini, – dedi.

Po'latjon:

– Mana bu toychoqning chiroylilagini, xuddi hozir yugurib ketadigandek gijinglab turibdi! – dedi.

U Toychoqni yolidan silamoqchi bo'lib qo'lini cho'zdi.

– Yo'q, tegish mumkin emas, – tergash ohangida gapirdi Marhamat, – sindirib qo'yasan.

– Sindirmayman, yolidan silab qo'ymoqchiman, – dedi Po'latjon, – xo'b deya qol.

– Tegma dedim-ku! – yerdepsindi Marhamat.

Gulmira:





– Quyonchani o'ynashga berib tur, – dedi.

Marhamat:

– Yo'q, men bularni ataydan yasatib qo'yganman, qancha ko'rsanglar ko'raveringlar, tegmasalarin bo'ldi, – dedi.

Bolalar birpas o'yinchoqlarni tomosha qilib turishi, keyin yana mehmonxonaga qaytishdi.

Biroz o'tirib mehmonlar uy-uylariga tarqadi. Marhamat ancha charchagan ekan, uxlagani yotdi. Hademay shirin uyquga ketdi.

Eng qizig'i keyin bo'ldi. Yarim kecha edi. Hamma o'yinchoqlar hamon o'z joylarida ko'rgazmaga qo'yilgandek qotib turishardi. To'satdan Ayiqpolvon bir kerishdi-da, yo'g'on ovozda do'rillab gapirdi:

– E, zerikib ketdim, hech kim biz bilan o'ynamaydi.

– Men ham zerikib ketdim! – qichqirdi Xo'rozcha bo'ynini cho'zib.

– Qachon qarasa bitta joyda turganimiz-turgan, – kishnab yubordi Toychoq. – Biz zerikmay kim zeriksin?!

– Men ham bolalar bilan o'ynagim kelyapti, – dedi Quyoncha yig'lamsirab.



– Og‘aynilar, menda bitta taklif bor, – dedi ayyor Tulkivoy, – kelinglar, yana o‘yinchoq do‘koniga qo-chib ketamiz. U yerda maza qilib o‘ynaymiz.

Bu taklif hammaga ma’qul tush’di. Ayiqpolvon lapanglab yo‘l boshladi, qolgan o‘yinchoqlar uning ketidan ergashdi.

Marhamat ertalab uyg‘onib ko‘zini ochsa xonasi bo‘m-bo‘sh. Xo‘rligi kelib yig‘lab yubordi. Shunda bir burchakda o‘tirgan Bo‘taloq (uni Marhamat yaqinda olib kelgan, shuning uchun Bo‘taloq hali zerikib ul-gurmagan edi) Marhamatni ovutdi.

– Yig‘lama, Marhamat. Men o‘yinchoqlarning qayoqqa qochib ketganini bilaman, yur olib boray, – dedi.

– Koshkiydi olib borsang, – sevinib ketdi Marhamat.

Bo‘taloq Marhamatni do‘konga boshlab bordi.

Marhamat qarasa hamma o‘yinchoqlari o‘sha yerda ekan.

– Yuringlar uyga, – dedi Bo‘taloq, – Marhamat endi sizlarni zeriktirib qo‘ymas ekan.

– To‘g‘ri, zeriktirib qo‘ymayman, – dedi Marhamat, – kim so‘rasa beraman, bolalar bilan to‘yguncha o‘ynaysizlar.

O'yinchoqlar Marhamatning chin yurakdan gapirayotganini ko'rib rozi bo'lishdi. Hammalari yo'lga tuishishdi. Ko'chada – Marhamatlarning uyi oldida ularni Sayyora, Gulmira, Po'latjon va boshqa bolalar kutib olishdi.

Marhamat o'yinchoqlarni o'rtoqlariga bo'lishib berdi.

– Olinglar, hammamiz birga o'ynaymiz, – dedi Marhamat, – endi hech kim zerikmaydi.

Bu gapni eshitib bolalar ham, o'yinchoqlar ham sevinchlaridan qarsak chalib yuborishdi.






PODSHOH HUKMI...

Bo'lganmi, bo'lmanan, to'g'rimi, noto'g'ri, bizga qorong'u, bular ertakning hukmiga havola, muhimi, o'qib mag'zini chaqsak, shunisi a'lo. Aqlilar naqllab so'zlar ekan, aqlsizlar laqillab so'zlar ekan, shuning uchun aytar so'zni aytmoq, aytmas so'zdan qaytmoq kerak ekan...

Sher o'rmonga podshoh bo'lgach, barcha hayvonlarni yig'ib majlis o'tkazdi.

– Bugundan e'tiboran bu o'rmonda faqat mening aytganim-aytgan, deganim-degan bo'ladi. Boshqalarning aytganlari mutlaqo inobatga olinmaydi, – debdi.

Hamma jim, o'rtada sukunat. Barcha hayvonlar ichlarida „Endi bu yog'i qanday bo'lar ekan?“ deb o'ya tolishibdi. Bunday holda har qanday gap ham ortiqcha bo'lar ekan, hech qanday natija ham, obro' ham olib kelmas ekan. Shuning uchun bu gap-so'zlarga aralashish behuda va besamar ekan. Lekin shunday bo'lsa-da, kutilmaganda hayvonlar orasidan ovoz eshitilibdi.



– Bu dunyoda hamma bir-birining aytganini qilishga majbur, – debdi.

Shu yerda Sher g'azablanib:

– Men hammi, hech qachon! Men hech biringning aytganiningni qilishga majbur emasman. Kim aytyapti shu gaplarni? Qani, o'rnidan tursin, – debdi.

Shu payt Tulki o'rnidan turibdi.

– Sen yaramas nima deb valdirayapsan? – debdi Sher Tulkiga dag'dag'a qilib.

– Olampanoh, men sizning har bir so'zingizni ma'qullayman. Lekin hozirgi aytgan gapimga izoh berishdan avval men sizga sovg'a keltirgan edim, shuni qabul qilib olsangiz, – deb quchoqlab o'tirgan quyon go'shtini Sherga taqdim etibdi.

– Olampanoh, bu go'sht yangi, yeb oling, – debdi. Quyon go'shti Sherning dimog'ini qitiqlabdi, uni ikki yamlab bir yutibdi.

Shundan so'ng Tulki nasiba uchun Sherdan duo so'rabdi. Sher duo qilib, Tulkining ovi baroridan keliшини tilabdi.


Shundan so'ng Tulki aytgan gapini izohlashga o'tibdi:

– Olampanoh, siz bizning shohimizsiz. Agar biz sizga sovg'a-salom keltirsak, siz uni qabul qilishdan



bosh tortsangiz, biz sizga qanday qilib xizmat qilamiz? Sizning aytayotgan gapingiz bo'yicha biz kel-tirgan sovg'alarni qabul qilmay, ularni qaytarishingiz kerak. Lekin men hozir sizga keltirgan sovg'amni yeb oling, degan edim, gapimni hech ikki qilmay bajardingiz. Nasibaning haqiga duo so'ragan edim, buni ham ado etdingiz, barcha eshitdi. Demak, men bu yerda nimani xato aytibman? – debdi Tulki Sher-ga yuzlanib.

Shunda Tulkining gaplariga javob topolmay, gangib qolibdi va Tulkining gaplari to'g'riliqiga iqror bo'lishdan o'zga chorasi qolmabdi. Tulkining aqliga tan berib, uni o'ziga maslahatchi qilib olibdi.



MUNDARIJA

So'zboshi	3
Odob ilmi.....	5
To'g'ri so'z.....	8
Dag'al bola.....	9
Farosatsiz bola	10
Qaysar bolalar	11
Ishni yashirmang.....	14
Yangi Toshkent.....	15
Janjal kulgisi	17
Tush.....	17
„Hayotga to'g'ri keladi“.....	23
Chiroylı qız	25
„Qo'shni birovmi?“.....	26
Boshi xumday bola.....	28
Ikki xil yordam	30
Ola quyoncha haqida ertak	31

Velosiped.....	34
Ignा.....	36
Damirning qulog'i yo'qmi?.....	38
Bulbul.....	40
Ikki o'rtoq	43
Oppoq buvaning nevaralari.....	45
Dadam qurban dengiz.....	46
Paltocha.....	50
Bek va tabib	53
Marsdan kelgan.....	57
Sherning do'sti.....	62
O'qilon va non.....	65
Oltin gul.....	67
Nigora	73
Mehribon o'rtoq.....	76
Zubayda bilan Huvayda	78
Nihollar nolasi	84
Chumolinining hikoyasi.....	94
Qurbaqanining hikoyasi.....	97

Olxo'ri va o'rik	99
Birinchi meva	101
Tishi borning rizqi bor.....	103
Keksa kulol va shogird	107
Quyoncha	111
Yorilgan miltiq	115
Tomchi haqida ertak	119
Yaxshilik	123
To'lab ber.....	125
Shakar qiz.....	127
Qand bersangiz.....	130
Endi hech kim zerikmaydi	131
Podshoh hukmi	137



KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR UCHUN
HIKOYALAR



Toshkent shahar,
Chilonzor tumani,
Muqimiy ko'chasi, 178-uy.

6+

ISBN 978-9943-07-757-7



9 789943 077577